جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
26-yanvar
№ 5 (5)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

SUN’IY INTELLEKT

AY-TI, OLIM BUVA VA BOSHQALAR



Atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasida shunday lavha bor: “Bir kuni dadam shayton aravasini minib Qo‘qonga ketgan edi, kechqurun qaytishda Olim buvaning opasi – saksonlardan oshib qolgan kampirga yo‘liqibdi. Dadam qo‘ng‘iroq chalmay uning yonidan shuv etib o‘tib ketibdi. Uning shabadasidan seskanib ketgan kampir boshini ko‘tarib qarasa, oldinda odamga o‘xshagan bir maxluq oyog‘i yerga tegib-tegmasdan uchib ketayotganmish. Kampir shaytonlab o‘zini tashlab yuboribdi. Odam yig‘ilibdi. Kampirni uyiga zambilda olib ketishibdi. Dadam qo‘rqqanidan ko‘chaga chiqmay, do‘konga ham bormay qo‘ydi. Uch kun deganda kampir o‘lib qoldi”.

Bu o‘tgan asr boshlarida, yuz yilning nari-berisidagi gaplar. Hech narsani qo‘shib-chatmay, bo‘yamay-bejamay yozishni ijod taomiliga aylantirgan Abdulla Qahhorning tarixiy xizmati ham shunda – xalq hayotiga ko‘zgu tuta olganida. Haqiqiy Ijodkorning davr taqozosiga ko‘ra qarashlari o‘zgarib turadigan soxta tarixchidan farqi ham shunda – Hayotga ko‘zgu tutib, uni haqqoniy aks ettirish orqali xalq tarixining o‘zgarmas manzarasini ko‘rsatib bera olganida. Olim buva yana nima deydi deng? “Shu shaytonarava kelganidan buyon Yaypandan fayz ketdi”. Buni inkor etib bo‘lmaydi.

O‘tgan asrning o‘rtalarida ham traktor shudgorlagan yerda ungan pomidor yo kartoshka kofirning yemishi ekani haqida Olim buvalar bemalol fatvo berib yuborishaverar edi. Zulmatga ko‘nikkanlar yorug‘likdan nechog‘li seskanishi tibbiyot isbotlagan hodisaning o‘zigina emas.

Qur’oni Karimning “As’hobul kahf” surasidagi zolim zulmidan qochib borib g‘orga berkingan birodarlar singari ular mangu uyqudan uyg‘onib, tevarak-atrofga boqib qanday manzarani ko‘radilar? Yaqinginada katta idoralar-u mansabdor shaxslarning uylaridagina bo‘ladigan telefon mo‘jaz shaklda Olim buvaga qarindosh podachi xurjunining bir chetida jiringlab qolsa, u Rossiyaning qaysidir chetida ishlab yurgan o‘g‘li bilan bemalol gaplashish imkoniga qanday qilib ega bo‘lganini o‘ylab ham o‘tirmay, Yaypandan fayz ketganidan, o‘tinchi o‘p kamyobligidan, mol-hollarga xashak yetmayotganidan yozg‘irib arzi hol qiladi. Muddao ham ayon – o‘g‘il ko‘cha supurib bo‘lsa ham, unga pul yuborib turishi kerak. U o‘g‘lini yoshligidan kitobga oshno qilib yaxshi o‘qitmaganidan, zamonaviy texnologiyalarga oshno qilmaganidan, sun’iy intellekt imkoniyatlari orqali “fayzi ketgan” Yaypanda o‘tirib ham pul topish imkoniyatini qo‘ldan chiqarganidan afsuslanish nari tursin, buni yetti uxlab tushida ham ko‘rmaydi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga jiddiy qaramasa, dunyoning eng taraqqiy qilgan mamlakatlaridagi imkoniyatlar ham yaramay qolishi hech gap emas. Shuni anglagan holda, yurtimizda axborotlashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston o‘z oldiga 2030-yilga qadar innovatsion taraqqiy etgan yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin egallashni ustuvor vazifa qilib belgilagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari bu yo‘nalishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Axborotlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni turli sohalarga tatbiq etish natijasida yurtimizda sun’iy intellekt sohasida o‘ziga xos salohiyat asoslari yaratila boshlandi. Innovatsion rivojlanish vazirligi va vazirlik tizimidagi tashkilotlar, AKT bo‘yicha ilmiy tadqiqot markazlari, oliy ta’lim muassasalari va ularning iqtidorli bitiruvchilari hamda texnoparklar, xususiy sektordagi bir qator tashkilotlar faoliyati shular jumlasidandir. Sun’iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari yo‘nalishida aqlli shahar, xavfsiz shahar, aqlli maktab kabi loyihalar amalga oshirila boshlandi. Ekin maydonlarining holatini baholovchi onlayn platformalar joriy etilmoqda.

– Mamlakatimizda bugungi kunda ilm-fanga, zamonaviy texnologiyalarga berilayotgan e’tibor barcha sohalar rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda, – deydi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti Behzod Yo‘ldoshev. – Lalmi yerlardan necha sentner bug‘doy olinishini bilasizmi?

(Davomi 3-sahifada)

BU SPEKTAKLNI KO‘RDINGIZMI?

“TURKISTON BOLALARI”

Jadidlik harakati, o‘sha davr voqealari haqida sahna asarlari deyarli yozilmaganini nazarda tutsak, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, iste’dodli ijodkor Go‘zaloy Matyoqubovaning ushbu mavzuga qo‘l urgani e’tiborga loyiq. Muallif “Turkiston bolalari” nomli sahna asarini Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani hamda Bahrom Irzayevning “O‘zbek yoshlari va xorijiy ta’lim” kitobidan foydalangan holda yaratgan.

Pyesada Turkistonni ozod, mustaqil ko‘rishni orzu qilgan, shu yo‘lda kurashgan, jadid bobolarimiz ko‘magida Germaniyada o‘qib qaytgan talabalarning taqdiri haqida hikoya qilinadi. Yoshlari, tanlagan kasblari turlicha bo‘lgan bu talabalarni bitta maqsad – Turkistonni yuksaltirish maqsadi birlashtirgan. Bu maqsad yo‘lida ular bor kuch-g‘ayratlarini sarflaydilar, hatto jonlarini fido etadilar. Afsuski, ularning orzu-intilishlari, mehnatlari uvol ketadi. Yurtga qaytib, ezgulik yo‘lida ish boshlagan yoshlarning boshiga jadidlarning kuni tushadi, sovet hukumatining qonli siyosati ularni o‘z domiga tortadi.

Yaqinda O‘zbekiston drama teatrida G.Matyoqubovaning “Turkiston bolalari” nomli ikki pardali dramasini yosh rejissyor Rasuljon Tog‘ayqulov ustoz san’atkor Olimjon Salimov badiiy rahbarligida sahnalashtirgan spektakl premyerasi bo‘lib o‘tdi. Sahnalashtiruvchi rassom Sergey Chufarnov, liboslar rassomi Rayhon Yo‘ldosheva.

Yurtimizning taniqli fan va san’at namoyandalari hamda yosh ijodkorlarning mazkur spektakl haqidagi taassurotlari bilan tanishasiz.

(Davomi 4-sahifada)

ZAMONA JADIDLARI

DUNYONING ENG ULUG‘ IMORATINI QURAYOTGAN INSONLAR

TAHRIRIYATDAN: Farzandlarimiz kelajagini o‘ylagan ma’rifatparvar zamondoshlarimiz bor ekan, demak, xalqimiz ma’naviyati yuksalib boraveradi. Prezidentimizning 2023-yil “1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan ustozlarga yo‘llagan tabrigida shunday satrlar bor: “Bugungi kunda mamlakatimizda maktab ta’limini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish umummilliy harakatga aylanib bormoqda. Xususan, navoiylik Abdukarim Saksonov, samarqandlik Quyosh Haqberdiyev, Ilhom Rustamov, buxorolik Oybek Namozov, qashqadaryolik Nurbek Ergashev kabi o‘nlab tadbirkorlarimiz o‘z hududlarida yangi maktablar qurgani, ta’lim dargohlarini kapital rekonstruksiya qilib, zamonaviy asosda jihozlab bergani, ohangaronlik oqsoqol shoirimiz Barot ota Isroilov esa hovlisida kutubxona ochib, uni o‘z hisobidan 10 mingta kitob bilan ta’minlab, bu ma’rifat maskanini qishloq o‘quvchilariga sovg‘a qilgani har qancha tahsinga sazovor”.

Gazetamizning mazkur sonida davlatimiz rahbari tabrigida ta’kidlab o‘tilgan navoiylik tadbirkor Abdukarim Saksonov haqida hikoya qilamiz.

Turkiston jadidlarining fozil namoyandasi Abdulla Avloniyning “Maktab – dunyo imoratlari ichida eng ulug‘idir”, degan so‘zlarida chuqur ma’no bor.

Oramizda shunday insonlar borki, ular o‘z dardi, tashvishidan ortib, dunyoning eng ulug‘ imoratini qurmoqdalar.

Ha, shunday zamonadoshlarimiz borki, ular o‘z faoliyatlari davomida bor bilimi va tajribasini yurt, xalq farovonligi uchun safarbar etadi.

Albatta, inson hayotda mehnati, olib borayotgan xayrli va ezgu ishlari bilan qadr topadi.

(Davomi 2-sahifada)

BUGUNNING GAPI

INSON QALBI BILAN HAZILLASHMANG SIZ...

Turkshunoslik ilmining asoschisi Mahmud Koshg‘ariy jahon adabiyotining mangu obidasi “Devon-u lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar lug‘ati”) asarini 1072-yilda yozib bitirgan, ya’ni bugungi til bilan aytganda, ona tilimizning birinchi akademik lug‘ati bundan salkam ming yil avval yaratilgan. Bunday lug‘atlar boshqa xalqlarda, jumladan, ruslarda V.I.Dalning mashhur izohli lug‘ati 1819-yilda yozilgan va 1863—1866-yillarda nashr qilingan. Birinchi ingliz tili lug‘ati esa 1552-yilda Richard Xaloet tomonidan tuzilgan. Agar hisob qilsangiz turkiy so‘zlar lug‘ati rus va ingliz tilidagi lug‘atlardan besh-yetti asr avval yaratilganiga tarixning o‘zi guvoh...

Oksford universiteti professori Jon Grivs 1643-yildan boshlab “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarini ilmiy tadqiq qila boshlaydi va Ulug‘bekning yulduzlar katalogidan olingan 98 ta yulduz holatini 1648-yili e’lon qiladi. Keyinchalik esa, u Mirzo Ulug‘bekning to‘rt qismdan iborat “Zij”ining birinchi kitobini lotin tiliga tarjima qilib nashr etadi.

Tarixda bu singari misollarni istagancha topish, qiyoslash mumkin. Yurtimiz zaminida tavallud topib, dunyo tamadduniga munosib hissa qo‘shgan bobolarimizning ilmiy-madaniy meroslari, shubhasiz, xalqimiz tarixidagi yorqin sahifalardir.

Ammo bu sharafli tarixni ko‘rolmaydigan, unga hasad ko‘zi bilan qaraydigan “tarixchilar” hamma zamonlarda ham bo‘lgan. Bunga ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Yaqinda millatchi Zaxar Prilepinning shovinistlarcha tuhmatidan keyin kuni kecha haqiqatni soxtalashtiruvchi, bir qator turkiy xalqlar tarixini chippakka chiqaruvchi “tarixchi” Mixail Smolinning tuhmatlarini ham eshitdik.

(Davomi 2-sahifada)

Xalqimizda “Shamol bo‘lmasa terakning uchi qimirlamaydi”, degan gap bor. Har issiq, har sovuqning ham o‘ziga yarasha sababi bo‘ladi. Keyingi paytlarda tarix axlatxonasidan joy olib bo‘lgan sovet imperiyasini qayta tiklash, bugun xalqaro maydonda katta nufuz va hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lib, dunyoga o‘z so‘zini ayta boshlagan, madaniy-ma’naviy jabhada ko‘plarga namuna bo‘layotgan milliy respublikalarni orqaga qaytarish, mash’um ittifoqni tiklash maqsadida turli oshkora-pinhona bayonotlar berilmoqda.

SHAMOL QAYERDAN ESAYAPTI?

Bunday mas’uliyatsiz chiqishlarni o‘tmish tarixdan butunlay bexabar, savodsiz, o‘qish-yozishni bilmaydigan odamlar emas, davlatning rasmiy tashqi siyosatini belgilash ishiga hissa qo‘shish darajasidagi mas’ullar aytayotgani va bunga o‘z joyida jiddiy, ta’sirchan munosabat bildirilmayotgani g‘oyat taassufli. “Bu – bizning rasmiy siyosatimiz emas, shunchaki bir-ikki kishining shaxsiy fikri”, deyish va shu bilan qanoatlanish ma’lum maqsad yo‘lida urchitilayotgan xavfli illatning ildiziga suv quyishdan boshqa hech narsa emas.

“O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir”, degan gap bor. Gapirish kerak bo‘lsa, faqat bir tomon emas, boshqa tomonlarda ham gap bor. Ammo uzoq o‘tmishdan boshlab qat’iy amal qilib kelinayotgan milliy odob-axloq qoidalarimiz borki, ko‘p tarixiy haqiqatlarni yuzlariga solib, insof-diyonatli kishilarni izza qilish niyatimiz yo‘q. Shu bois ham, biz, masalan: “Ulug‘ ajdodlarimiz falakiyot ilmida olis yulduzlargacha yetib borganlarida, donishmand Sharq Ovrupo muallimlariga aylanganlarida ba’zi xalqlar o‘rmonda ayiq terisini yopinib, yarim yalang‘och yurishgan”, deyishdan tiyilamiz.

(Davomi 2-sahifada)

TARIX VA TAQDIR

AMIRNING AHVOLI TANG EDI

Roppa-rosa 30 yil muqaddam “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida “Amir nega Behbudiyga qo‘l bermadi?” sarlavhali badia bosildi. G‘oyatda zukko va nozikta’b kuzatishlar mahsuli bo‘lmish mazkur badia muallifi, atoqli ustoz adib Ibrohim G‘afurov 1917-yil 7-aprel kuni Buxorodagi “Rahimxoniy” mehmonxonasida yuz bergan tarixiy voqea haqida g‘oyatda sinchkovlik ila so‘z yuritadilar.

Voqeaning muxtasar tafsiloti tubandagicha: ayni bahor kezlari usuli qadim va usuli jadid tarafdorlari o‘rtasida ziddiyat tahlikali tus oladi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Buxoroda amir nomidan islohotlar manifesti e’lon qilinishi haqidagi xabar aholi orasida keng tarqaladi. Ushbu voqea munosabati bilan, xususan, to‘s-to‘polon gazak olib tarqab ketishiga yo‘l qo‘ymaslik xavotirida general Kuropatkin Samarqand voliysiga rasman murojaat yo‘llab, u yerdan vakillar yuborilishini so‘raydi.

(Davomi 8-sahifada)

PARLAMENT

ZIYOLILAR MAS’ULIYATI

2023-yil 22-dekabr kuni Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ilgari surilgan tashabbuslar, soha rivojiga qaratilgan aniq rejalar ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi. Madaniyat, ma’naviyat yo‘nalishidagi ishlar har bir soha vakiliga daxldor.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi hamda Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyasi tashabbusi bilan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy-ma’rifiy islohotlarida ziyolilarning o‘rni” mavzuida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.

– Mamlakatimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, – dedi deputat Oydin Abdullayeva. – Xususan, “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, unda madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi.

O‘tgan davrda milliy an’analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san’ati markazlari tashkil etilgani, “Bahor” raqs ansambli, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgani e’tiborga molik.

Deputatlar sohada olib borilayotgan ishlar haqida so‘z yuritib, Prezident raisligidagi yig‘ilishda ilgari surilgan tashabbuslarga to‘xtaldi. Shuningdek, yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, navqiron avlod vakillarining yurtimizdagi islohotlar jarayonidagi ishtirokini oshirish haqida ham so‘z yuritildi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirda “Jadid” gazetasining taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Ta’kidlanganidek, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan chop etilgan “Jadid” gazetasi Vatan va xalq manfaatlari yo‘lida jon fido qilgan millat oydinlari – jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini keng targ‘ib etishda o‘ziga xos tafakkur maydoni bo‘lib xizmat qiladi.

– Davlatimiz rahbarining mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarurligi haqidagi so‘zlari shunchaki tarixiy ma’lumot emas, balki har birimiz uchun jiddiy chaqiriq ekanini teran anglashimiz shart. “Jadid” gazetasi ana shunday jasoratli ziyolilar uchun asosiy minbarga aylanishiga bel bog‘laganmiz va bu borada barcha jonkuyar, fidoyi yurtdoshlarimizni ijodiy hamkorlikka chorlaymiz, – dedi “Jadid” gazetasi bosh muharriri Iqbol Mirzaaliyev.

Tadbirda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi Munavvara Abdullayeva so‘z olib, bugungi kunda butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonida mamlakatimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, ziyolilarning xalqimiz oldidagi vazifalari haqida fikr-mulohazalarini bildirdi.

Muhtarama KOMILOVA,
O‘zA

DUNYONING ENG ULUG‘ IMORATINI QURAYOTGAN INSONLAR



(Boshlanishi 1-sahifada)

Ko‘p yillardan buyon quruvchilik va xizmat ko‘rsatish sohalarda faoliyat yuritib kelayotgan tadbirkorning mehnati alohida e’tirof etildi.

Abdukarim Saksonovni nafaqat tumanda, balki yurtimizning barcha hududlarida ham yaxshi bilishadi. U nafaqat kamtarin, ochiqko‘ngil inson, balki saxovatpesha tadbirkor ham. Ayni paytda “Saksonov” MCHJ nomli katta kompaniyani boshqaradi. Kompaniyada bugun uch ming nafarga yaqin fuqaro turli yo‘nalishlarda mehnat qilib kelmoqda.

1975-yil 7-aprelda Navbahor tumanining Ortiq Farmonov mahallasida tavallud topgan Abdukarim Saksonov 1996-yildan xususiy tadbirkor sifatida tanila boshladi. Dastlab o‘quv qurollari savdosi bilan shug‘ullangan tadbirkor 2011-yilda “Saksonov” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga asos soldi.

– Tinimsiz harakat va oldinga intilish muvaffaqiyatlar garovidir, – deydi Abdukarim aka. – Bugun yurtimizda Prezidentimiz tashabbuslari va qo‘llab-quvvatlashlari tufayli tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berildi. Ularning erkin faoliyat yuritishi, iqtisodiy jihatdan baquvvat bo‘lishi uchun



Abdukarim SAKSONOV,
tadbirkor

barcha sharoitlar yaratilgan. Ular foydalanib, biznes soha vakillari halollik yo‘lini tutib, ham o‘z korxonasi iqtisodiyoti, ham yurt taraqqiyotiga munosib hissasini qo‘shishi kerak. Bitta ish o‘rni yaratish ham aslida fidoyilikdir.

Bugun Navoiy shahrini ulkan qurilishlar va bunyodkorliklar maydoniga qiyoslash mumkin. O‘tgan davr mobaynida tadbirkor tomonidan o‘ziga xos landshaft va dizaynda qurilgan ko‘p qavatli turar joy binolari, yirik savdo majmuasi foydalanishga topshirildi. Joriy o‘quv yilida ming nafarga yaqin o‘quvchini o‘z bag‘riga olgan ta’lim muassasasi ham ana shunday bunyodkorlik ishlaridan biridir.



– Navoiy shahrida tadbirkor tomonidan 23 milliard so‘mlik homiylik mablag‘lari hisobidan bunyod etilgan 990 o‘rinli yangi maktab joriy o‘quv yilida foydalanishga topshirildi, – deydi shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i Shalola Hamidova. – Besh qavatli ta’lim muassasasida o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Binoda lift, oshxona, kutubxona, turli fan laboratoriya xonalari, sport zali, futbol va basketbol maydonlari, o‘quvchilarning madaniy hordiq chiqarishi uchun dam olish joylari mavjud. Maktabga o‘qituvchilar alohida suhbat orqali tanlab olindi. Bu ham o‘quvchilarga bugungi kun talablari asosida ta’lim-tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qahramonimiz muntazam ravishda xayrli ishlarni amalga oshirib keladi. Ammo bu haqda gapirishni, “ko‘z-ko‘z” qilishni xush ko‘rmaydi, “O‘ng qo‘ling berganini chap qo‘ling bilmasin” naqlini shior qilib olgan tadbirkor “Nima keragi bor, shart emas”, deya suhbatga yakun yasab qo‘ya qoladi.

– Xalq dardini o‘z dardi, deb biladigan tadbirkor 2019-yili Xalq deputatlari Navbahor tumani Kengashi deputatligiga saylangan. Ishonch esa, katta mas’uliyat degani, – deydi Qonunchilik palatasi deputati yordamchisi Rustam Sailxonov. – Saxovatpesha deputat Abdukarim Saksonov ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga amaliy yordam berib kelmoqda.

Ayniqsa, koronavirus pandemiyasi davrida “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga katta miqdorda mablag‘lar o‘tkazganini navoiyliklar yaxshi bilishadi. Navbahor tumanidagi “Qalqonota” va Mirzo Ulug‘bek nomidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari aholisiga bir necha marta oziq-ovqat mahsulotlarini bepul tarqatdi. Hudud aholisidan kompaniyada ishlayotgan ishchi-xodimlar uchun maxsus avtobuslar ajratilgan.

Bugun ham Abdukarim Saksonov aholiga sifatli va zamonaviy xizmat ko‘rsatishni maqsad qilib, yangi loyiha va innovatsiyalar ustida tinimsiz izlanishlar olib bormoqda. “Avvalo, qilayotgan ishingizdan



fuqarolarimiz rozi bo‘lishi kerak, shunda haqiqiy xalqchil tadbirkor bo‘lamiz”, deydi qahramonimiz.

Bir necha yil oldin Abdukarim Saksonov Navoiy shahrida “Tashabbuslar” sayilgohini barpo etgan edi. Hududdagi sport maydonchalari, kichik amfiteatr, jozibali favvoralar, so‘lim daraxtlar, eng muhimi, o‘ziga xos landshaft-dizayn nafaqat yoshlarning, balki shahar ahlining sevimli maskaniga aylangan.

Mamlakatimizda yurt ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida qilingan mehnat, ilgari surilgan tashabbuslar doimo qadrlangan, qo‘llab-quvvatlangan. Saxovatpesha tadbirkor Abdukarim Saksonovning mehnatlari ham munosib baholanmoqda. U mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida Prezidentimiz Farmoniga binoan “Shuhrat” medali, 2023-yilda esa “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlandi.

Abduvali BO‘RIYEV
Siroj ASLONOV *olgan suratlar.*

INSON QALBI BILAN HAZILLASHMANG SIZ...

(Boshlanishi 1-sahifada)

Imperiyaparast “tarixchi”ning “NTV” telekanalidagi chiqishida aytgan gaplaridan, birinchi navbatda, ulug‘ xalqlarning tarixini, insoniyat tarixini buzib talqin qilishga urinayotgani yaqqol seziladi. Nahotki, odam shu darajada nodonlikka berilsa, butun dunyo ahliga qarab bemalol yolg‘on so‘zlasa?! Balki bu alamli so‘zlardir!

Beixtiyor akademik shoir G‘afur G‘ulomning “Sharaf qo‘lyozmasi” she’ri yodimizga tushadi. Bundan 75 yil oldin yozilgan bu she’r ingliz lordining bizni qabila deb ataganiga javob tarzida bitilgan edi. Lordning so‘zlariga qarshi shoir yozadi:

Qadim o‘zbek xalqisan,
Asl odam avlodi.
Misr ehromlaridan
Tarixing qariroqdir.

Ma’lumki, Odam atodan boshlangan tariximiz qadimiy qo‘lyozmalarda bitib qo‘yilgan. Azaldan yetti pushtini bilib kelgan ota-bobolarimiz nafaqat milliy urf-odatlar, an’analarimizni boyitgan, balki ilm-fan bobida ham tengsiz edilar.

Bizda logarifmaning
Mushkul muammolari
Qo‘ldagi barmoqlarday
Oddiy qilinganda hal,
Oliy irq da’vogari
Hatto sanay olmasdi
O‘n barmoqni mukammal.

Tushungan o‘quvchiga she’rning har satrida olam-jahon ma’nolar bor. Algebraning asoschisi Abu Abdulla Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ekanini butun dunyo olimlari e’tirof etgan. Bobomizning “Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob” asari nomi bilan murakkab bir fan atalishini ham, bu asar bugungi raqamli texnologiyalarning poydevori ekanini ham, akademik shoirimiz o‘sha zolim sovetlar zamonida baralla aytayotganidagi jasorati ham bizni hayratga soladi.

Shoir o‘z xalqi bilan g‘ururlanib davom etadi:

Jahonlar yaratarlik
Tarixiy kamoling bor.
Ozod vatan egasi,
O‘z ko‘ksingda o‘z quyosh,
Quyoshday zavol bilmas
Yarqiroq jamoling bor.

Xuddi shu tarixingni,
Shu yering, quyoshingni,
Biliming, do‘stligingni
... Qullik kishanlarida
Qilmoq bo‘ladi ma’tal.

Ustoz shoir endi xalqimizning kamolini ko‘rolmaydigan tuhmatchilarning yovuz maqsadini zukkolik bilan o‘quvchiga anglatadi. Ya’ni bizni “qullik kishanlarida” tutib turmoqchi bo‘lgan kimsalarning qilmishini fosh etadi. She’r mazmunan yanada teranlashib boradi:

Ular ne-ne paktlarga
Og‘uli muhr bosib,
Jahannam qopqasini
Yer yuzida ochmoqchi...

Dunyodagi yovuz kuchlarning bundan ming yil avval ham, bundan yuz yil avval ham, bugun ham qabih maqsadlari ma’nosi o‘zgarmas – bir xildir, ammo turlicha ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Ular boshqa xalqlarning tinch-totuv yashashini, o‘zga yurtlarning gullab-yashnashini ko‘rolmaydilar. O‘zgalar hisobiga yashashni, bosqinchilikni, talonchilikni ko‘zlaydilar. Buni tarix isbotlaydi.

Shoir she’rni yakunlar ekan, buyuk xalqimizga qarata rag‘batlantiruvchi so‘zlarini aytadi:

Bir zo‘r ur, gurillasin
Bilag‘onlik ijoding,
Sening bilan shoirning
Manglayi yarqiroqdir.

Akademik shoir G‘afur G‘ulomning she’riyati an’analarini munosib davom ettirgan ustoz Abdulla Oripovning ushbu satrlari ham o‘z vaqtida xalqimizning kelajagiga g‘arazli niyatda qarovchi kimsalarni ogohlikka chaqiradi:

Inson qalbi bilan hazillashmang Siz,
Unda millat yashar, unda til yashar.
Unda ajdod faxri yashaydi so‘zsiz,
Unda istiqomat qiladi bashar.

She’rning davomini yaxshi bilasiz.

Mustaqillikka erishgan yurtimizning kundan kunga gullab-yashnayotgani, dunyo mamlakatlari orasida teng huquqli bo‘lib, kelajakka dadil odimlab borayotganidan tinchini yo‘qotgan kimsalar ko‘p. Ular o‘z davlati va xalqining tashvishlarini yengillatish choralarini ko‘rgani ma’qul emasmi? Nahotki, ular o‘z hayotining mazmunini tuhmatchilikda, talonchilikda, deb bilsalar? Nahotki, urushsiz, ahil umrguzaronlik qilishni bilmasalar? Avvaliga jahling chiqadi, keyin esa, ularga achinasan kishi...

Humoyun AKBAROV

(Boshlanishi 1-sahifada)

Dunyo asta-sekin keng ko‘lamli harbiy mojaroga yaqinlashib borayotgan, harbiy “musht”ni ko‘rsatib do‘q qilish oddiy odat tusiga aylanayotgan, zamonaviy frontda bir emas, bir necha yo‘nalishlarda chinakam jang ketayotgan, har kuni yuzlab oilalar otasiz, boquvchisiz qolayotgan, uylar yonayotgan, unumdor dalalar portlovchi vositalar bilan to‘yintirilayotgan bir paytda tinchlik, millatlararo do‘stlik, manfaatli hamkorlik ishiga ziyon-zahmat yetkazuvchi, ma’lum ma’noda puxta o‘ylangan, qaysi bir joyning sukuti, demakki, norasmiy roziligi bilan yuzalantirilayotgan bunday qabih bayonotlardan ko‘zlangan maqsad nima? Maqsad – qo‘msash.

SHAMOL QAYERDAN ESAYAPTI?

Yaqinda sobiq markazdan kelgan bir taniqli targ‘ibotchi televideniyeda chiqish qilib, “Biz o‘zaro madaniy aloqalarni keskin kuchaytirishimiz kerak, masalan, Toshkentni do‘stlik va tinchlik shahriga aylantirish mumkin”, dedi saxovatpeshalik qilib. Bu taklifni bundan uch oy avval Bishkek shahrida o‘tkazilgan madaniyat xodimlari forumida boshqa bir targ‘ibotchi ham o‘ta ko‘tarinki pafosda o‘rtaga tashladi.

Men unga javob qilib: “Muhtaram janob, Toshkent azaldan do‘stlik, tinchlik shahri, uning bu maqomini butun dunyo tan olgan, velosipedni qayta ixtiro qilishga mutlaqo hojat yo‘q. Ikkinchidan, bunday savob ishga kirishmoqchi bo‘lgan kishi, avvalo, o‘z uyida tinchlik-xotirjamlik o‘rnatishi zarur. Bunday qilmay turib, qo‘shnining uyiga borgan kishi kulgiga qoladi. Yaxshisi, men sizga tinchligini yo‘qotgan, yarim vayronaga aylangan boshqa shaharlarni nomzod sifatida taklif qilishim mumkin”, dedim.

O‘tgan asrning to‘qsoninchi yillari boshlarida ittifoqchi respublikalar mustaqillikka erishgach, Moskva jamoatchiligi vakillari matbuotda, radio-televideniyeda g‘aroyib bir shikoyat bilan chiqishlar qilishgan, “Nima bo‘lyapti o‘zi? Magazinlarda olma, o‘rik, behi, yong‘oq, O‘rta Osiyodan keladigan anor, ertangi karam, pista-bodom qani? Bolalarimizni nima bilan boqamiz? Milliy respublikalar rahbariyati qayoqqa qarayapti o‘zi? Bu qanday mas’uliyatsizlik? Internatsionalizmga hurmat shumi? Ularning tanobini tortib qo‘yish kerak. Shunday qilinmasa, peshtaxtalarimiz huvillagancha yotaveradi. Bunga aslo toqat qilib bo‘lmaydi...”, degan gapni takror-takror aytishgan.

O‘sha yillari Ivanovodagi to‘qimachilik korxonalarida ishlayotgan xodimlar nomidan sobiq ittifoqning katta minbariga chiqqan bir deputat ayol: “O‘zbeklar bizga paxta yetkazib berishni kechiktirishlari, xomashyo bahosini oshirishlariga yo‘l qo‘ymaymiz, o‘zboshimchalarga chora ko‘rilishini talab qilamiz”, deb shovqin solgan edi.

Bugun o‘tmishda qolib ketgan mana shu tekintomoqlik turlicha ko‘rinishlarda qo‘msalmoqda va bu qo‘msash mantiqqa mutlaqo zid, hatto kulgili orzu-xayolga aylanayotir. Odamzot nimalarni orzu qilmaydi, deysiz. Yoshing bir joyga borganda yoshligingni, bebosh bo‘ydoqlik yillarini qo‘msaysan, ammo bu davr tushingga kirsa kiradiki, o‘sha holating hech qachon qaytib kelmaydi. Shu bois, bo‘ladigan gapni gapirish kerak.

Bir donishmand bobomiz: “Bir maqsad yo‘lida oldinga tomon ildamlab borayotgan odam yo‘lida uchragan har bir kuchukchaga e’tibor beraversa, ko‘p vaqt yo‘qotadi”, degan.

O‘zimizning bobomiz shunday degan. Bu ulug‘ nasihatni aslo unutmaymiz. Ammo... shamolning yo‘nalishiga ham qarab turamiz.

Ahmadjon MELIBOYEV

TALQIN

“SIZNING ARMONINGIZ YASHAR QAROG‘DA...”

Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Cho‘lpon Ergash, Omon Matjon, Jamol Kamol, Ma’ruf Jalil, Muhammad Ali va boshqalarning jadid bobolarimizga va o‘z ijodlarida jadidlar ruhini, jadidona kayfiyatni dadillik bilan davom ettirgan Usmon Nosir, Oybek, Shayxzoda, Mirtemirlar va qatag‘on qilingan boshqa ijodkorlar xotirasiga atalgan dardkash misralarida, cheksiz bir muhabbat alangasida isingan she’rlarida poyonsiz bir nafratning, yengib bo‘lmaydigan shiddatli g‘azabning ham taftini sezasan kishi.



Yashar QOSIM,
Ozarbayjon Fanlar akademiyasining bosh ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Davr-u davronga nafratning... Qonxo‘r zamonga nafratning... Lirik “men” ma’naviy olamida muhabbat va g‘azab birligi shoir e’tiqodining poydorligini, lirik kayfiyatning ko‘lamini belgilaydi. Haqiqiy va haqqoniy she’riyat zamonlarning uzilgan rishtalarini ulovchi, begonasiragan avlodlarni bir-biriga yaqinlashtirib, qondoshlikni tiklovchi ma’naviy-estetik robita ekanligi yana bir karra ayon bo‘ladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, stalinizm hukmron chog‘larda, ulkan bir mamlakatni qabohat va razolatlar boshqarayotgan mahallarda Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Oybek, Shayxzoda, Mirtemir singari sofdil va muqaddas insonlar turli-tuman illatlarga ko‘milgan jamiyatning Poklik, Odamiylik, Soflik, Ezgulik Orollari edi!..

Qatag‘onga uchragan aksariyat ijodkorlarning omadsizligi-yu fojiaviy qismatlarining tub sabablari shu nuqtada tutashadi: davr illatlariga bo‘yin egmaslik. Abdulla Oripovning qatag‘on qilingan ijodkorlarga bag‘ishlangan she’rlarida ushbu haqiqatning in’ikosini ko‘ramiz. Ayon bo‘ladiki, jabr va qo‘rquvga, yolg‘on va aldovga asoslangan jamiyatda barcha ma’naviy fazilatlar, botiniy-axloqiy qadriyatlar nafaqat o‘z qimmatini yo‘qotadi, qadrsizlanadi, balki insonni halokatga eltuvchi aks xislatga aylanadi. Qabih va razolatlar dunyosida ezgulikning yo‘q qilinishi muqarrardir.

Zamonga moslashishni istamaganlarni, davr yo‘rig‘iga yurmaganlarni, ya’ni ma’naviy o‘limga ko‘nmaganlarni – jismoniy o‘lim kutadi. Qo‘rquv va yovuzlik dunyosining taomili, buzilmas “hayot” qonuni shunday edi. Bu temir qonun o‘zining yakka-yu yolg‘iz “o‘lim” degan mantig‘iga suyanardi. Insonni yoki insonda insonlikni o‘ldirishga qaratilgan bu yovuz diktatura butun boshli mamlakatni o‘liklar saltanatiga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygandi.

O‘sha vaqtda, XX asrning 30 – 50-yillarida ham, bu kun ham jamiyat ma’naviy o‘lim haqida jiddiyroq o‘ylagan emas. Jismoniy o‘lim vahimasi bunga imkon bermagan. Shuning uchun biz qatag‘on qurbonlari, deganda hamisha ma’naviy o‘limni e’tibordan soqit qilayotirmiz. Vaholanki, ma’naviy o‘lim miqyosi va oqibatlari yanada dahshatliroqdir. Fojia va yo‘qotishlarning ana shu qatlamlarigacha yetib borish, ehtimol, so‘z san’atining kelgusi vazifalaridandir.

Abdulla Oripovning bevaqt ketgan ustozlar ruhiga ehtirom bilan bitilgan bag‘ishlovlarida tushuntirib berish judayam qiyin, so‘zlar orqali ifodalab bo‘lmaydigan g‘alati bir kayfiyatni hassos she’rxon tuyadi. Yosh lirik qahramonning murakkab hissiy holatlarida, qiynoqli o‘y va kechinmalarida va’daga, ontga, qasamga o‘xshash nimadir bor. Ha, shoirning bu ruhdagi she’rlari xuddi qasamyod yanglig‘ yangraydi. Bu qasamning mazmunini esa, hech shubhasiz, “tutdek to‘kilgan” avlodning e’tiqod va idealiga yangi lirik qahramonning samimiy sadoqati belgilaydi.

Sizning armoningiz yashar qarog‘da
Balki u bo‘ylagay asrlarni ham...

Shoir ustozlarning ezgu armonlari, ayni avjida uzilgan orzulari kelgusi avlodlarga, bo‘lg‘usi asrlarga ham yetib borajagiga chin dildan ishonadi. Yangi lirik qahramonning ma’naviy olamida quvonchdan ko‘ra o‘kinchning, orzumandlikdan ko‘ra hasratnishinlikning, umuman, orzulardan ko‘ra armonning yetakchi kechinma darajasiga ko‘tarilishi ana shu bilan izohlansa kerak.

“Sizning armoningiz yashar qarog‘da...” Ha, bu alamli qasamyod faqat Mirtemirga emas, balki mustabid zamon taqdirini chil-chil sindirgan barcha ma’naviy salaflarga qarata aytilgan edi. Gap shundaki, ularning hammasini ham o‘sha davrda bemalol tilga olish mumkin emasdi. Tasodifiy emaski, turg‘unlik davri lirikamizda Abdulla Qodiriydan ko‘ra uning qahramonlari – Otabek va Kumush ko‘proq kuylanadi. Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho‘lpon nomlarini esa o‘sha davr she’rlarida, deyarli, uchratmaymiz. Faqat Abdulla Oripovning oltmishinchi yillarda yozilgan “Yozajakman” (1968) radifli mashhur g‘azalida bir bayt bor... Mana o‘sha bayt:

Osmon elining turfa-tuman yulduzi ko‘pdir,
Xo‘bdir barisi, ravshani – Cho‘lpon yozajakman.

Shoir bu satrlar orqali nima demoqchi? Gap haqiqatan ham, osmon elining turfa-tuman yulduzlari haqida bormoqdamikan? Chindan ham “Cho‘lpon” faqat yulduzni anglatarmikan? Bu va boshqa bir qator savollarga javob berish uchun she’rni batafsilroq tahlil qilishga to‘g‘ri keladi.



Esingizda bo‘lsa, g‘azal ijodkor va dunyo, shoir va zamon haqidagi teran, fikrchan hamda ehtirosli va g‘azabli misralar bilan boshlanadi. Ayni shu asabiy shiddat lirik kayfiyatning mazmunini anglashga yordam beradi.

Do‘stlar, demangiz men she’r-u doston yozajakman,
Men she’r-u doston ichra bir afg‘on yozajakman.

Shoirni ich-ichidan kuydiradigan dardni tushunishga urinaylik. Nega shoir, men shunchaki doston emas, balki afg‘on yozayapman, deya kuyunadi? Bu afg‘on nimadan, qaysi alamlardan tug‘ilgan? Lirik “men”ni butunlay muvozanatdan chiqargan, junbushga keltirgan bu o‘tli g‘amning ildizlari qayerda? Lirik qahramonning alamzada kayfiyati nega boshqalarda hayronlik uyg‘otadi?

Hayrona boqur bu manim ahvolima har kim,
Men ersam o‘zgalar ahvoliga hayron yozajakman.

“Men” esa boshqalar ahvoliga hayron... Bu o‘zaro hayronlikning boisi ne? Lirik “men” va muhit orasidagi “tushunmovchilik”ning aniq sababi bormikan? Shunga sabab “men”ning muhitdan hayron bo‘larlik darajada o‘sib ketganimikan? Yoki tevarak muhitning lirik qahramon ahvolini anglashga ojizlik qilishimikan?! Umuman, ushbu qarama-qarshilik Abdulla Oripovning aksariyat buyuk she’rlari, ayniqsa, ilk lirikasi uchun judayam xarakterlidir. Shoirning oltmishinchi yillarda qog‘ozga tushgan mashhur to‘rtliklaridan birida ham mazkur konfliktning bir qadar keskinroq va kinoyaomuz ohangda ifodalanganini ko‘ramiz.

Bulbul o‘gay erur zog‘lar orasida,
Yugurik suv o‘gay tog‘lar orasida.
Muhabbat dardidan bemor qalblarimiz
O‘gay bo‘lsak ne tong sog‘lar orasida .

Ushbu to‘rtlikda tasvirlangan holat yuqorida keltirilgan baytdagi “men” va “o‘zgalar” o‘rtasidagi “hayronlik”ni tushunishga ko‘maklashadi. Ya’ni, bulbul zog‘lar, yugurik suv tog‘lar, “muhabbat” dardidan bemor qalblar sog‘lar orasida o‘gay bo‘lganday, “men” ham “o‘zgalar” orasida shunchalar o‘gaydir. Shoir va muhit o‘rtasidagi begonalikning, yanada aniqrog‘i, qarama-qarshilikning obrazli va esda qolarli ifodasi bu. Tasodifiy emaski, muallif keyingi baytda “men”ni shoir, deb ataydi:

Shoir diliga qilmas havas, but esa bag‘ring,
Shoir yuragin doimo vayron yozajakman.

Abdulla Oripov “shoir” deganda, tabiiyki, faqat o‘zini, o‘z dardmand holatini ko‘zda tutmagan. G‘azaldagi umumiy kayfiyat shunga dalolat qiladi, muallif shoir qalbining vayronligini ta’kidlar ekan, birgina o‘z alamlarini to‘kib solmasdan, umuman, san’atkor fojiasini kuylamoqchi. Mazkur bayt ham “Yozajakman” g‘azalining ayni shoir fojiasi haqidagi asar ekanini dalillaydi:

Soldi dilima qancha alam u sho‘xi badhu,
Bilmamki, axir qay biri qurbon, yozajakman.

“Men” diliga cheksiz alam solgan “u sho‘xi badho‘” shoirlar fojiasining klassik nomidir... Keyin esa buyuk Cho‘lponning muborak nomi muhrlangan bayt keladi.

Osmon elining turfa-tuman yulduzi ko‘pdir,
Xo‘bdir barisi, ravshani-cho‘lpon yozajakman.

Bu misralar orqali g‘azalda faqat muallif o‘z alamlarini va umuman, san’atkor qismatining fojiaviyligi to‘g‘risida emas, hamda muayyan bir omadsiz shoir taqdiri xususida kuyunib so‘zlayotgani ayon bo‘ladi. Abdulla Oripov “cho‘lpon” obrazi bilan so‘z o‘yini qiladi. Ha, “cho‘lpon” faqat yulduzning nomi emas, balki milliy-ma’naviy e’tiqodimizning yo‘lboshchilaridan, she’riyatimiz osmonining yulduzlaridan biri – XX asr badiiy-estetik tafakkurimizning tong yulduzi Abdulhamid Cho‘lpon to‘g‘risida so‘z ketayotganini tushunamiz. “Cho‘lpon” istiorasining “yozajakman” ta’kid-radifi bilan yonma-yon kelishi baytning ma’no ufqlarini yanada kengaytirgan. Muallif shu orqali o‘zining Cho‘lpon ruhiga cheksiz muhabbatini, Cho‘lpon yo‘liga sadoqatini ham ifodalagan. Qolaversa, Abdulla Oripovning “cho‘lpon” nomi zikr etilgan tagdor satrlarida Abdulhamid Cho‘lponning o‘zining mashhur misralariga ham ishora bor.

Muhabbat osmonida go‘zal cho‘lpon edim, do‘stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku .

Haqiqatan ham, “Yozajakman” (1968) g‘azalida milliy armonimiz – bir paytlar ma’naviyatimiz osmonida porlagan go‘zal Cho‘lponning zulmat saltanatiga toqat qilolmay “yerga botishi” alam bilan eslanadiki, shunga hech qanday shubha yo‘q.

Bemalol aytish mumkinki, “ey johili nokas” xitobi kimgadir qaratilgan emas, bunda aniq birov, muayyan bir shaxs ko‘zda tutilmagan. “Men” zamonga qarshi chiqyapti. Ha, bu g‘azal sharmanda saltanat peshonasiga bitilgan g‘azabli aybnomadir. G‘azalning poetik mantig‘i va pafosi shunday jiddiy xulosa chiqarishga undaydi. Zero, “Yozajakman” kimdandir, hatto kattakon arbob yoki rahbardan xafa bo‘lib yozilgan she’r emas. Balki Abdulla Oripovning she’rni va shoirni poymol qilgan, inson shaxsini va erkini oyoqosti qilgan yovuz jamiyatga, “puchak jonlar” ahliga isyoni edi.

Yosh va yangi avlodning 60-yillardagi shoirona dil anduhlari, otashin poetik kechinmalari yangi estetik idealni shakllantiradigan xuddi mana shunday ma’naviy-badiiy sarchashmalardan edi. Shunisi aniqki, Abdulla Oripov va avloddoshlarining dardmand va milliy g‘am bilan sug‘orilgan navqiron ruhiy tarjimayi holi yovuz zamonning ko‘tarinki va quvnoq ehtiroslaridan emas, balki jadid bobolarimizning, Fitrat va Cho‘lponlarning, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosirlarning ozodlik armonlaridan, erk hayqiriqlaridan tug‘ilgandi. Ularning yosh va mardona dilnomalari, shikasta ko‘ngil rozi mustabid tuzum va hokimiyat tomonidan tushovlangan, evrilgan So‘z va She’r shakl-shamoyilidagi “shodlik qo‘shini”dan (Rauf Parfi) emas, aksincha, zanjirband qilingan ko‘ngillarning pinhona yig‘isidan, kulishga majbur va mahkum etilgan ko‘zlarning yashirin yoshlaridan suv ichgandi. Ha, donishmand G‘afur G‘ulomning intizor yoshlari:

Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek,
Intizor ko‘zlarda halqa-halqa yosh...

“Betimsol Oybekning” ko‘ngil yig‘isi:
Yuragimda yig‘lar Vatanim...

“Beqiyos she’r lochini” – Maqsud Shayxzodaning ko‘z yoshlari:

Meni yig‘lamas deb o‘ylar odamlar,
Lekin chaqmoqtoshga ham qo‘nar shabnamlar.
Men olamdan yashirib ko‘z yoshlarimni
Kechalari eslayman yo‘ldoshlarimni, –

hech shubhasiz, yosh va yangi avlodning bokira dunyosida, beg‘ubor va murg‘ak qalbida unutilmas o‘kinch, o‘chmas iz bo‘lib qolgan, uning ko‘ngil ko‘zini ochib yuborgandi.

Boku shahri

Boshlanishi 1-sahifada



AY-TI, OLIM BUVA VA BOSHQALAR

– Ha, besh yoki olti sentner, qayroqi bug‘doy ham deyishadi.

– Navoiy viloyatida zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan yutuqlarini hayotga tatbiq etish orqali lalmi yerlarda bug‘doy hosilini 20 sentnerga yetkazdik.

– Nahotki, bu juda katta yutuq!

– Albatta. Bugun dunyo insoniyat oldiga oziq-ovqat yetishmasligi, suv taqchilligi kabi juda ko‘plab muammolarni qo‘ymoqda. Ularga ilm-fan yechim topib berishi kerak.

“Shu shaytonarava kelganidan buyon Yaypandan fayz ketdi”, degan Olim buvaga tutashgan avlodning podachisi-yu, olis o‘lkalarda suv tekinga ishlab yurgan farzandi qo‘lidagi telefondan foydalanayotib, o‘zi ham shunaqa narsa kashf eta olishi mumkinligini bir lahza bo‘lsa-da, o‘ylamaydi! Yarata olish tafakkuri ishga solingandaydi, otabola bir-biridan ayrilmasdan, yengil va farovon yashash imkoniga ega bo‘lardilar. Qush kabi qanot qoqib ucha olmasa-da, aql-zakovat, tafakkur tufayli inson yuksala oladi. Mavlono Jaloliddin Rumiy aytganlaridek, “Uchmoqqa qanot yo‘q, vale uchgayman”.

Mana, turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm va dasturiy tizimlardan iborat zamonaviy sun’iy intellekt ham inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma’lumotlar asosida amalga oshira oladi. Bu tarzi bilan u Yaypandan ketgan fayzni qaytarish imkoniga ega. Murakkab tahlillar va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni o‘z ichiga olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega sun’iy intellektdan ortda qolib, uni ishlata olmaslik, unga qaramlikni keltirib chiqaradi. Aks holda u yuksak tafakkur sohiblarining yordamchisiga aylanadi.

Behzod Salomov yuksak salohiyatli zamonaviy o‘zbek. Poliglot – olti tilni mukammal biladi, musavvir, haykaltarosh, animator, rejissyor. “Bir yigitga qirq hunar oz” deganlaridek, qiziqishlari sarhad bilmaydi. Aksariyat dunyo mamlakatlarini aylanib chiqqan, hindlar orasida yashagan, turli dinlar, e’tiqodlardan yaxshi xabardor. “Futurist” nomli kinostudiyaga asos solgan. Uning ofisida kompyuter sohasida yetuk mutaxassislar faoliyat yuritishadi. Dunyoning turli mamlakatlaridan buyurtmalar olib turishadi. Ikki yildirki, yangi tashkil etilgan Toshkent Xalqaro kinofestivaliga dunyoning turli mamlakatlaridan oqib kelayotgan o‘nlab filmlarni qisqa fursatda o‘zbek tiliga tarjima qilib, tomoshabinlarga yetkazib beradi.

– Sun’iy intellekt, ba’zilar o‘ylaganidek odamlarning ish o‘rnini olib qo‘ymaydi, balki ish o‘rinlarini yaratadi, – deydi u. – Buning uchun u bilan ishlaydigan odamning o‘zida ham yetarli bilim, salohiyat, tafakkur bo‘lishi kerak. Aks holda, ta’bir joiz bo‘lsa, sun’iy intellekt unga “qalbini ochmaydi”. Sun’iy intellekt bir yoki ikki mamlakat doirasida emas, kerak bo‘lsa, dunyo bo‘ylab siz uchun ish o‘rinlarini yaratib berishi mumkin. Faqat u bilan muloqot o‘rnata olish zarur. Bu yog‘i inson salohiyati va tafakkuriga bog‘liq.

Asrlar davomida toshlardagi yozuvlar, kitoblar, obidalar tafakkur evrilishlarini aks ettirib kelgan. Endilikda zamonaviy san’at turlari – kitob yozish, rasm chizish, filmlarda tasvir ustida ishlash, montaj jarayonlarini sun’iy intellekt orqali bemalol amalga oshirish mumkin. Unga g‘oya bersangiz bas. Avatarlar hozirgi kundagi ayrim chuchmal va savodsiz teleboshlovchilardan ko‘ra bu ishni ancha yaxshiroq uddalashadi.

Hukmdorni davolashi evaziga Ibn Sino foydalangan saroy kutubxonasining xonalari son-sanoqsiz edi. Har bir xonada ustma-ust qo‘yilgan sandiqlar ichi kitobga to‘la edi. Bir xonada arab she’riyatiga taalluqli, ikkinchi xonada fiqh-qonunchilikka doir kitoblar qalashib yotardi. Ibn Sino u yerda hatto nomini ham hech kim hech qachon eshitmagan kitoblarni ko‘radi. Ularni o‘qib, foydali narsalarni o‘rganib oladi va har bir muallifning donishmandlik darajasidan xabar topadi.

Hech bir gap qolmadi
ma’lum bo‘lmagan,
Juda oz sir qoldi
mavhum bo‘lmagan.
Bilimim haqida chuqur o‘ylasam,
Bildimki hech narsa
ma’lum bo‘lmagan.


Shayxur-rais bitgan ushbu satrlar hozir ham o‘z kuchida.

Fridrix Nisshe “Zardusht o‘gitlari” asarida “Xudo o‘ldi”, deb e’lon qilgan edi. Agar shunday bo‘lsa, insoniyat yangi Xudoga ehtiyoj sezadi va uni o‘ylab topadi. Shu o‘rinda Ilon Maskning quyidagi so‘zlarini eslash kifoya. “Agnostik-texnologlar Xudo bor yoki yo‘qligini aniqlash uchun sun’iy super intellekt yaratayotgani eski hazil. Nihoyat ular tugatib, savol berishadi. Sun’iy intellekt javob beradi: “Endi bor”.

U sizning yoningizda. Uni tanish esa, sizga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv hodisadir. “Koinot cheksizligining oxiri bo‘lsa ham, inson ahmoqligining cheki yo‘q”, degan edi Albert Eynshteyn. Tafakkur ishga tushgan joyda hayot gullaydi.

Shoyim BO‘TAYEV

“TURKISTON BOLALARI”



(Boshlanishi 1-sahifada)

Bahrom IRZAYEV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori:

– “Turkiston bolalari” spektaklida bir guruh yoshlarning Turkiston taraqqiyotiga hissa qo‘shish niyatida olis Germaniyaga yo‘l olishi, ta’lim olish jarayonidagi hayoti, Vataniga qaytgach, o‘z sohalarida amalga oshirgan ulkan ishlari hamda sobiq sovet hukumati tomonidan qatag‘onga duchor etilishi o‘ziga xos tarzda ochib berilgan.

Spektaklda o‘tgan asrdagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti va o‘tkir muammolari yurtni ozod va obod ko‘rishni orzu qilgan Fayzulla Xo‘jayev, Fitrat va Cho‘lpon suhbati jarayonida tushuntirilgan. Ilm-fan va Vatan taraqqiyoti yo‘lida hayotlarini baxshida etishga tayyor yoshlar, ularning ota-onalari, hukumat vakillari va jadid muallimlarining Germaniyada o‘qish taklifini xursandchilik bilan qarshi olishi va ularni tantanali kuzatish jarayoni tomoshabinni to‘lqinlantiradi. Ularning Berlindagi hayoti, orzu-intilishlari va ilm yo‘lidagi sa’y-harakatlari Abduvahhob Murodiy, Sattor Jabbor, Ahmad Shukriy, Xayriniso Majidxonova, Sulton Matqul, Maryam Sultonmurodova, Afzal Abdusaidlar timsolida ishonarli ko‘rsatib berilgan va bu tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Turkistondan professor Meyersonning borishini asarning kulminatsiyasi desak, Javlon Jovliyev “Qo‘rqma” romanida uni ashaddiy shovinist va tabiatan o‘ta xunuk qilib tasvirlasa, Go‘zaloy Matyoqubova Turkistonning va talabalarning “do‘sti” sifatida tanishtiradi. Voqealar, kechinmalar Ahmad Shukriy (Bekzod Zokirov), Sulton Matqul (Nodir Bekmurodov), Xayriniso Majidxonova (Sabina Murodova), Maryam Sultonmurodova (Husniyabonu To‘ramurotova) obrazlari orqali ta’sirchan gavdalantirilgan. Kuzatishimcha, atrofimdagi yoshlar ham, keksalar ham bu qahramonlarga qo‘shilib kuldi, g‘azablandi, kuyladi, yig‘ladi. Shu o‘rinda Go‘zaloyning yana bir yutug‘i Berlindagi talabalarning “Ko‘mak” jurnalida chop etilgan she’rlarini, maqolalarini o‘zlariga o‘qitganidir. Mixalkov va Afzal Abdusaid to‘qnashuvi ham juda ta’sirli chiqqan. Asarda ikki obraz – Xayriniso va Maryam biriktiruvchi vazifani o‘tagan. Ammo ular, haqiqatan ham, Germaniyada, J.Jovliyev ta’biri bilan aytganda, o‘sha “yetmishvoylar”ning ikki ko‘zi edi. Haliyam ularning Parij safari, Venadagi hayotlari yoritilmagan. Umuman, spektakl rejissyori Rasuljon Tog‘ayqulov, sahna asariga badiiy rahbarlik qilgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Olimjon Salimovga ham bu go‘zal asar uchun minnatdorlik bildiramiz.

Shohrux ABDURASULOV,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori:

– Spektaklda bugungi jamiyatimiz, yoshlar kamoloti uchun juda zarur g‘oyalar ilgari surilgan. O‘tgan asrning 20-yillarida jadid ma’rifatparvarlarining tashabbusi va sa’y-harakati bilan olmon diyorida tahsil olgan va Turkistonga qaytgach, fojiali tarzda qatl etilgan millat yoshlarining jasorati bugun har bir insonni hayajonga solishi, Vatanga bo‘lgan muhabbatini oshirishi tabiiy. Shu ma’noda O‘zbekiston davlat drama teatri jamoasini ayni mavzuga murojaat qilgani bilan qutlasak arziydi.

Drama muallifi Go‘zaloy Matyoqubova Turkiston yoshlari qismatini murakkab, dramatik lavhalarda tasvirlaydi. Xususan, talabalarning Germaniya safari oldidan Vatan haqqiga qasam ichishi, rus mulozimi Meyerson bilan suhbati, hibsdagi otashin so‘zlari tomoshabinni mutaassir qiladi.

E’tiborlisi, spektakldagi barcha qahramonlarni, asosan, yosh aktyorlar ijro etgan. Ular sahnada bir-birini tushunib, yaxlit ansamblga aylanishadi, muallif va rejissyor g‘oyasini ifodalashga harakat qilishadi. Jumladan, Behzod Zokirjonov ijrosidagi Ahmad Shukriy, Nodir Muhammadjonov ijrosidagi Sattor Jabbor, Husniyabonu To‘ramuratova talqinidagi Maryam Sultonmurodova, Sabina Murotova gavdalantirgan Xayriniso Majidxonova obrazlarida e’tiborga molik yutuqlar mavjud. Ayniqsa, matonatli o‘zbek qizi Xayriniso obrazi spektaklning yetakchi qahramoniga aylantirilganini qayd etish lozim. Xayriniso – millat xotin-qizlarining chinakam timsoli, fidoyiligi, jasorati, ilm-u ma’rifati bilan minglab tengdoshlariga o‘rnak bo‘lgan, Vatan taraqqiyoti, hurligi uchun shirin jonini nisor aylagan qahramon ayol. Uning qamoqxonada rus zobiti bilan uchrashuvi spektaklning eng ta’sirchan sahnalaridan biri bo‘lib, zaifa bo‘lsa-da, qaddini tik tutib, dushmanning yuziga boqishi, betiga tupurishi va yakunda dahshatli kaltaklariga turib berishini ko‘rib, o‘zbek qizining jasurligi, temir irodasiga tahsin o‘qiysiz.

Shu o‘rinda ijro va talqin masalasidagi ayrim mulohazalarimizni aytib o‘tsak. Spektakldagi dialoglar har qancha ta’sirchan va haroratli bo‘lmasin, aktyorlarning hali yosh ekani, muayyan o‘rinlarda tajribaga muhtojligi sezilib qolgan. Aktyorlar matnni puxta o‘zlashtirgan, biroq o‘sha matn ortidagi dard, iztirob, alam-u qayg‘u, fojialar yetarlicha his qilinmagan, aksar sahnalarda ovoz-u ehtirosga zo‘r beriladi, ortiqcha pafos, hissiyot ustuvorlik qiladi. Vaholanki, kechinmalarni sukutlar ila, jim turib ham yetkazish mumkin. Shuningdek, jadidlar – Cho‘lpon (Po‘lat Normatov), Fayzulla Xo‘jayev (Sirojiddin Sattorov), Fitrat (Nodir Mirzaahmedov) obrazlarini tajribali aktyorlar ijro etgan bo‘lsa-da, ularning spektakldagi o‘rni deyarli sezilmaydi. Jadidlar Turkiston yoshlari taqdirida hal qiluvchi o‘rin tutganini inobatga olsak, ularning drama va spektakldagi ahamiyatini oshirish darkor. Bu vazifani amalga oshirish uchun yosh rejissyor Rasuljon Tog‘ayqulov aktyorlar bilan izlanishlarini davom ettirishi lozim.

Sahnalashtiruvchi rassom Sergey Chufarnov davr manzarasi va muhitini sahna dekoratsiyalarida ochib beradi. Spektaklda sahnada kechayotgan voqelik bilan parallel tarzda orqa fondagi videotasvir orqali XX asr boshida Turkistondagi hayot, jadid ziyolilarining qiyofalari ko‘rsatiladi. Nazarimizda, bunday yondashuv shartli san’at bo‘lmish teatrning tabiatiga muvofiq emas, sahnada barcha voqealarni jonli ko‘rsatgan ma’qul.

Shu kabi kamchiliklarni istisno etganda, “Turkiston bolalari” spektaklidan ko‘zlangan maqsadga erishilgan desa bo‘ladi. Eng muhimi, bu sahna asari yoshlarimiz qalbida vatanparvarlik, yurtga sadoqat, millatga daxldorlik hissini uyg‘otishga xizmat qiladi.

Ma’mur UMAROV,
falsafa fanlari doktori:

– Yosh dramaturg Go‘zaloy Matyoqubovaning “Turkiston bolalari” nomli dramasi asosidagi spektaklning bosh qahramonlari chet ellarda o‘qib kelib, yurt rivojiga hissa qo‘shishni niyat qilgan yoshlar. Sahnada ular bilan birga F.Xo‘jayev, Fitrat, Cho‘lpon qiyofalari ham namoyon bo‘ladi.

Turkiston yoshlari 70 dan ortiq edi. Dramaturg sahna talablarini inobatga olib, bu yoshlar nomidan to‘rt yigit va to‘rt qizni asarga bosh qahramon qilib olgan. Yosh rejissyor dramaturg bilan hamkorlikda spektakl kompozitsiyasini voqealarning mantiqiy rivoji asosiga quradi. Natijada boshlanish, tugun, rivoj, pafos va yechimdan iborat kompozitsiyaga ega bo‘lgan tomosha yuzaga keladi. Ushbu tomoshaning asosiy g‘oyasi yoshlarni bilimli bo‘lishga va o‘z yurtining ravnaqi uchun hissa qo‘shishga da’vat qilishdan iborat.

Teatrning bosh rejissyori O.Salimov mazkur spektakl uchun institutni endi bitirgan yoshlar tanlab olinganini, ular teatr jamoasi bilan birgalikda tajriba orttirayotganini alohida ta’kidladi. Mazkur spektakl premyerasi kutilganidan ziyod natija ko‘rsatgani yoshlar ustozlarining ishonchini oqlaganidan dalolat berdi. Chunki tomosha so‘nggida zal oyoqqa qalqdi, muxlislarning gulduros qarsaklaridan larzaga keldi. Hammamiz uchun yangi va yaxshi spektakl muborak bo‘lsin.

Suhbatni **Gulchehra UMAROVA** *yozib oldi.*

MUNOSABAT

YANGI KUCH, YANGI HARAKAT BAXSH ETADI



O‘zbekistonda “Jadid” nomli gazeta nashr etila boshlagani muhim tarixiy voqeadir. Bu, birinchidan, jadid bobolarimizning ma’rifiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy g‘oyalariga bugungi kunda katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatsa, ikkinchidan, mustabid sovet tuzumi davrida qatag‘on qilingan jadidlik g‘oyalarini bugungi avlod qaytadan davom ettirib, millatimiz manfaatlari yo‘lida foydalanayotganidan dalolatdir. Hurmatli Prezident Shavkat Mirziyoyevning jadid bobolarimiz g‘oyalarini davlat miqyosiga ko‘tarib chiqqanidan behad xursandmiz.

“Jadid” gazetasining ilk sonini qo‘lga olib, uni diqqat bilan o‘qib chiqqanimda, bu yangi nashr jadid bobolarimizning milliy merosi hozirgi va kelajak avlodlarga yetkazib berilishida, ularning vatanparvarlik ruhida ulg‘ayishida katta hissa qo‘shishiga to‘liq ishonch hosil qildim. “Jadid” gazetasi faoliyatiga ravnaq tilayman.

Temur XO‘JAO‘G‘LI,
Michigan davlat universiteti faxriy professori, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professori

“Jadid” gazetasining nashr bo‘la boshlaganini eshitib juda quvondik. Jadid bobolar g‘oyalarini millatga yetkazishni ta’minlash Yurtboshining jonkuyarligini ko‘rsatadi. Zero, jadidlar yuksak ilmiy, milliy, siyosiy, ijtimoiy g‘oyalarni ilgari surgan, millatning erki, g‘ururi va istiqboli yo‘lida jonlarini fido etishgan. Jadidlarning mutaraqqiy g‘oyalarini ilgari surish juda ulkan maqsaddir.

“Jadid” gazetasining nashr bo‘la boshlashi o‘zbek millati va O‘zbekistonning Uchinchi Renessans tomon yo‘l olganini ko‘rsatadi. Bu sa’y-harakatni jadid bobolarimiz buyuk orzusi amalga oshishiga tomon tashlangan muborak qadam sifatida chin ko‘ngildan qutlayman, jadidlar g‘oyalari amalga oshishida muhim omil bo‘ladi, deb umid qilaman.

Abdulhaq RAHIMIY,
Saripul yuksak o‘quv muassasasi o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi Afg‘oniston

Turk dunyosining ma’naviy hayotiga yangi kuch, yangi harakat baxsh etadigan “Jadid” gazetasi nashrini muborakbod etaman.

Inson qalbiga to‘g‘ri yo‘l olayotgan birlashish zamonida butun turk olamiga ibrat bo‘lishini tilayman.

Jadid bobolarimizning muqaddas ruhlari va “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori barchamizga yo‘l ko‘rsatsin.

Ahmet Bijan ERJILASIN,
Turk kulturi tadqiqotlar instituti direktori, professor Turkiya, Anqara

OCHIG‘INI AYTGANDA

“NOMUS”DAGI NOMUSSIZLIK

Atrofimizdagi olam bizning qarashlarimiz, orzularimiz, intilishlarimiz, xulosalarimizga ta’sir ko‘rsatadi. Bunda, ayniqsa, jamiyatda birga yashayotgan, turli sohada faoliyat yuritayotgan kishilarning qarashlari, tutumlarining ta’siri katta. Keyingi vaqtlarda oynai jahon orqali uzatilayotgan ko‘rsatuvlarning, hatto reklamalarning odamlar ongiga ta’siri qanchalik kuchli bo‘layotganini ko‘rib turibmiz.

Bu borada televizion seriallar yetakchi mavqeni egallamoqda.

Seriallar ham, albatta, ularga ehtiyojlardan kelib chiqib paydo bo‘lgan, rivojlangan, mavzusini kengaytirgan. Seriallarning yaxshisi mazmunli kitob o‘rnini bosishi ham mumkin. Kitob o‘qimaydigan kishilarning katta qismi kino va seriallarga qiziqadi, ularni tomosha qiladi.



Serialning badiiy filmdan farqi bor, albatta. Filmlarda, sir emaski, voqealar rivoji qisqa davom etadi, voqea-hodisalar ma’lum vaqt ichida yoritiladi. Shunday ekan, tafsilotlarning hammasi ham aks etmaydi. Seriallar esa ko‘p qism va fasllarga bo‘linadi, voqealar eng mayda detallarigacha, kunma-kun yoritib boriladi. Serial avvalidan uning qachon tugashi va necha qismdan iboratligi noma’lum bo‘lgani sababli ularni kanda qilmay kuzatadigan muxlislari ko‘p.

Dunyo seriallari tarixiga nazar tashlasak, ular, asosan, o‘tgan asrning 50-yillarida AQSHda ommalashganini ko‘ramiz. Dastlab mashhur bo‘lgan seriallardan biri “Dunyo qanday aylanadi” filmi bo‘lgan. Eng uzoq davom etgan serial “Yo‘naltiruvchi yorug‘lik” 18262 qismdan iborat bo‘lgan va Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.

Amerikadagi televizion serial maktabi keyinroq Buyuk Britaniya, Argentina, Germaniya, Fransiya, Braziliya, Meksika va boshqa davlatlarga yoyilgan va rivojlangan.

Dunyoning turli mamlakatlarida xalqlarning seriallarga ehtiyoji bor. Bizning yurtimizda asrimiz boshlarida Meksika seriallari qiziqib tomosha qilingan bo‘lsa, bugungi kunda, ko‘rib turganimizdek, turk, koreys, xitoy seriallari ko‘proq qiziqtiradi. E’tibor bersak, seriallarini dunyoga taqdim etuvchi mamlakatlar hatto maishiy mavzulardagi filmlarda ham o‘z qadriyatlarini, tarixiy qahramonlarini ulug‘lashadi, vatanining, yurtdoshlarining yutuqlarini namoyish qilishadi. “Dengiz hukmdori” seriali qahramonini yaxshi biladigan, u kabi bo‘lishga intiladigan bolalar Amir Temurning qanday sharoitlarda sarkarda bo‘lganini bilmaydilar. Yoki tibbiyot ilmi asoschisi Ibn Sinoni bilmaydilar-u, koreya seriallari ta’sirida ulardagi tibbiyot tarixi va bugunini ilg‘or deb o‘ylaydilar.

Nega biz shu kabi seriallarga o‘z milliy-tarixiy seriallarimiz bilan javob berolmaymiz? Axir, kuchli mafkura ta’siriga tushib, milliy o‘zlikni yo‘qotmaslik va tariximizdan uzilib qolmaslik uchun eng katta kuch televideniyeda ekani ma’lum-ku.

Ajdodlarimizni bilmasligimizga, tariximiz bilan faxrlanmasligimizga bugungi kunda shu buyuk tarixni, ajdodlarning sha’nini ko‘rsatishga imkoni bo‘la turib, bu imkonni sovurayotgan, kassabop, o‘rtamiyona, yengil-yelpi, mulohazaga chorlamaydigan, mazmuni sayoz filmlar namoyish qilayotgan mutaxassislar sababchi emasmi? Tomoshabin qiziqishiga qarab ish tutish to‘g‘ridir, lekin saviyasiz tomoshabinga moslashish boshqa – chuqur fikrli, talabchan, mushohada yuritadigan e’tiborli tomoshabinlar saviyasiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Yurtimizda serial ishlab chiqarish o‘tgan asrning 70 – 80-yillarida boshlandi. Dastlabki seriallar sifatida 1977 – 1984-yillarda suratga olingan 17 qismli “Olovli yo‘llar” kinoromani, 1981-yil suratga olingan 20 qismli “Navoiy”, 1990-yilda 10 qismli “Bobur”, 1996-yilda 15 qismli “Mehrobdan chayon”, 1997-yilda 100 qismli “Charxpalak”, 1998-yilda 50 qismli “Ko‘ngil ko‘chalari” filmlarini eslash mumkin. Ochig‘ini aytganda, milliy tarixiy serial deganda shu filmlarga ishora qilamiz. To‘g‘ri, o‘tgan yigirma yil mobaynida xalqimizga o‘zbek kinorejissyorlari tomonidan suratga olingan “Tutash taqdirlar”, “Opa-singillar”, “Qaldirg‘ochlar yana qaytadi”, “Mehmonjonlardan aylanay”, “Umidingni so‘ndirma” kabi seriallar ham namoyish qilindi. Ammo ularda ham maishiy mavzu yetakchilik qiladi. “Serjantlar 1-2” kabi seriallar esa, ma’lum yo‘nalishda bo‘lsa-da, shuhrat qozonadigan darajada ishlanmagan.

Xitoy va koreys seriallarida mamlakat tarixi yuksak darajada ko‘rsatilishi bilan birga, filmni tomosha qilgan yosh avlod tasavvurida bosh qahramonlarga havas, ularga o‘xshashga urinish yoki farzandiga qahramonlar ismini qo‘yish holatlari ham kuzatiladiki, bu tomoshabinlar dunyoqarashiga serialning ta’siri jiddiyligini ko‘rsatadi. Yosh avlodga, umuman, xalqimizga o‘zligimiz, tariximiz, Mirzo Ulug‘bek, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy, Bobur, Najmiddin Kubro singari siymolar haqida filmlar yaratish o‘rniga qaynona-kelin, meros talashish kabi mayda mavzulardan chetga chiqa olmayapmiz.

To‘g‘ri, film yoki seriallarni oila davrasida jam bo‘lib ko‘rish mumkin, lekin bu bilan seriallarni oqlab bo‘lmaydi. Bu ularning vazifasiga kirmaydi. Seriallar milliy qadriyatlarni yoshlarga singdirishga, milliy g‘oyani mustahkamlashga ham xizmat qilishi kerak.

Bugungi kunda ayrim kinochilar tomonidan taqdim etilayotgan mahsulotlar shunchaki tadbirkorlik – biznesga aylanib qolgani sir emas. Seriallarni kuzatib boruvchilar, odatda, kitob o‘qishga moyil, davomli voqealarga qiziquvchan, sarguzashtlarni yoqtiradigan, kutilmagan hodisalarni kuzatishga ishtiyoqmand bo‘lishadi. Har bir yurtdoshimiz ham ish faoliyati, kundalik yumushlari, turmush tashvishlaridan ortib, kunda bir marta bo‘lsa-da, oynai jahon qarshisiga kelishi aniq. Biror film yoki serialni ko‘rib, hordiq olishni istaydi. Lekin bugun namoyish etilayotgan ba’zi serial va filmlardagi mazmunan bir xillik, sayozlik va savodsizlik kuzatuvchilarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘z muammolaridan chalg‘ish niyatidagi inson filmni tomosha qilayotganda voqealar ta’siriga tushish, ruhan ezilish, asabiylashish holatlariga tushishi ham bor gap. Chunki ularning barida deyarli bir xil muammolar: kelin va qaynonaning kelishmasligi, sevgi va muhabbat mojarolari, xiyonat kabi mojarolar tasvirlanadi.

Yaqinda namoyish qilingan “Nomus” seriali anonsini kuzatganimda, bu gal yaxshigina film ishlashibdi, deb o‘ylagandim. Ammo unday bo‘lib chiqmadi. Nom-u nomusning og‘riqli, insonning insonligini belgilaydigan eng muhim mezon ekaniga ishora qiladigan ushbu filmni biror-bir jihatiga ko‘ra oqlab bo‘lmaydi. Unda na sadoqat, na hayo, na halollik, na muhabbat tarannum etilgan. Qani bizning qadriyatlarimiz? Nega biz buzuqlik, maishiy tubanlikni tomoshabinga taqdim etayapmiz? Nega maishiy hayoti tuban odamlarni qahramon qilib olib chiqayapmiz? Nega odamlarning tuyg‘ulari bilan o‘ynashyapmiz?

“Nomus”da nomusidan ayrilib qolgan qizning boshqa bir oilaga kelin bo‘lib borishi, farzandining boshqa birovdan ekanligi, xullas, bu kabi voqealarni ko‘rib-kuzatib o‘tirishga toqat yetmaydi. Nima bo‘larkin, deb tomosha qilib turgan juda ko‘plab tomoshabinlarning ko‘nglida ham shunday e’tirozlar paydo bo‘lishi tabiiy.

Men odamlarimizni, ayniqsa, bolalarni bu kabi seriallardan qattiq qizg‘onaman. Yo seriallarga qat’iy talab qo‘yish kerak yoki ularni cheklash lozim. Boshqa yo‘l yo‘q.

Gulnora SHERMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

GULLARGA KO‘MILGAN OQSHOMLAR



Shodmonqul SALOM

XXI asrga aytarim

Zamin bekor aylanmas ekan,
Vaqt fazoda fitna tugadi.
Yulduzlarning gohi-gohida
Yer shariga ko‘zi tegadi.

Yo‘q, shunchaki nur sochmas quyosh,
Tutqun singil – Oy to‘lmas bekor.
Tovonimga kirgan tikanning
Yupiterda hisoboti bor.

Tili bo‘lsa aytsin dengizlar,
Esi bo‘lsa tushunsin odam.
Yupanch uchun kelmas kunduzlar,
Qo‘rquv uchun tug‘ilmas tun ham.

Yo‘q, bekorga aylanmaydi Arz,
G‘am, shodlikda muvozanat bor.
Faqat qaytib qutulinar qarz,
Katta, juda katta hisob bor.

Juda katta dargoh bor – beshak,
Juda ulug‘ nigohni ko‘rdim.
Bobom otgan ona Mamontning
Gunohiga men qo‘rqib turdim.

Tomirdagi qonim ko‘p qadim,
Garchi ko‘p bor tig‘ urdi riyo.
Rasulullo tahoratidan
Qolgan suvga yuz chaygil, Dunyo.

Ey, sen, ko‘kka bir bor boqmagan,
Ruhi – bandi, mudragan yurak.
Bolang “non” deb qo‘l cho‘zgan payti,
Senga Quddus nimaga kerak!?

Panamangni yechgin boshingdan,
Men do‘ppimni olay qo‘limga.
Mahatmani otgan qotil ham
Kimga o‘xshar, sengami, menga?

Bunda chekma – dimiqdi olam,
Ruhiyatni tutunlar quchdi.
Uyg‘onolmay chirpanar bolam,
Oyoqlari Ozonni teshdi.

Brunoni yoqib, so‘ng uning
Yorug‘ida o‘q yo‘ngan, ey, kin,
Sharq ko‘targan mash’ala tomon
Yetsin, deya aylanar zamin.

Bir karvonda ketayotirmiz,
Ketayapmiz, yo‘ldoshim, ishon.
Nechun sovuq zerikishingga
Payg‘ambarlar bo‘lsinlar nishon?

Aytmay desam, aytmoq – menga farz,
Yozmay desam, yurak to‘la she’r.
Boqqil, qanday kengdir bu olam,
Qara qanday aylanadi yer.
Beshik kabi chayqaladi yer.

Umid

Olloh, chaqirdingmi uyingga meni,
Uchib boramanmi uch kundan keyin?
Toshib ketayapti ko‘krakdan ruhim,
Rabbim, huzuringda turish ham qiyin.

Qancha umidim bor, qancha niyat bor,
Yuragim qamalgan qushlarga to‘la.
Har sezgan tuyg‘umda Sen bor, hikmat bor,
Barin aytolmayman, axir bir yo‘la...

Barchasin bilasan, o‘zing bilasan,
Ammo yuragimda bitta istak bor!
Ka’bangni aylanib o‘tayotgan dam,
Oldimdan onamni chiqargin, G‘affor!

* * *

Uchmaydigan odat chiqardi bu qush,
Bu qush zor-u nolon sayramay qo‘ydi.
Ey, dunyo, don-suving etdimi sarxush,
Yoxud u taqdirga ishonmay qo‘ydi.

Yurak tomib turgan tumshuqlarida,
Ne hislarni tashib keltirardi u.
Uzlat ayvonidan horg‘in termulgan
Shoirlarga og‘riq keltirardi u.

Tosh emasligini, qush ekanini,
Uchmoq va bo‘zlamoq – qismati tanho,
Ekanin eslatib ilhom ber, Rabbim!
Yerga qo‘nolmasdan bo‘lsa ham fido!

Shunga ko‘nolmasdan bo‘lsa ham ado,
Unga termulgancha tugaydi sabrim.
Hatto qushga qanot nechun berilgan –
Eslatib turmasang, bo‘lmaskan, Rabbim!

* * *

Gaplashgisi keladi goho,
Qo‘ng‘iroq qilgisi keladi.
Gohida ko‘zimga tik qarab,
Barisin bilgisi keladi.

Gohida bo‘ladi shunday hol –
Yulduzday to‘lgisi keladi.
Bilaman, ne ajab bilaman –
U baxtli bo‘lgisi keladi.

Gohida olovday tarmashib,
Chovutlar solgisi keladi.
So‘ng esa burchakda, uvullab,
Yuzlarin tilgisi keladi.

Gohida dunyoning yuzidan
Hijobin yulgisi keladi.
Ketishga hozirlik ko‘rib, so‘ng,
Yonimda qolgisi keladi.

Gullarga ko‘milgan oqshomlar
Negadir o‘lgisi keladi.
O‘lgisi keladi – bir marta,
Qo‘limda o‘lgisi keladi.

Bu ayol... ko‘zlari – juft qadah,
Men bilan to‘lgisi keladi.
Ko‘nglimni – Xudoning torini
Bir o‘zi chalgisi keladi.

Ba’zida sahroda tosh kabi,
Bir o‘zi qolgisi keladi.
Gohida qo‘lida telefon...
Qo‘ng‘iroq qilgisi keladi..

Munojot

Menga ham kimlardir qilar qo‘ng‘iroq,
Aytgilari kelar tashvishlarini.
Ichimga olisdan yoqarlar chiroq,
Go‘yo bajaraman yumushlarini.

Men ham birovlarni yo‘qlayman goho,
Nelardir so‘ylayman, dodim aytaman.
Ammo hech kim yo‘qdir –
tubimga boqsam...
Xudoyim, o‘zingga qaytaman!

Seni menga, meni Senga bog‘lagan,
Eng inja sababing, umrimdan cho‘ngroq.
Yaratganing garchi behisob, ammo
Menga ham kimlardir qilar qo‘ng‘iroq.

Bo‘yin tomirdan ham yaqin qo‘llaring,
Sezaman, tunlari barmoqlaringni.
Bandangdan so‘ratib sarson qilmagin,
Qoshingga ne bilan bormoqligimni,
Qaysi libos bilan turmoqligimni.



Iftixor XONXO‘JAYEV

KO‘NGILDEK OQ ATIRGUL

* * *

Seni sevar edim
va senga har tong
Oppoq atirgullar keltirar edim.
Ostonangga qo‘yib ketar edim, so‘ng
Ko‘zingga xayolan mo‘ltirar edim.

Ming shirin tushlarning bahridan o‘tib,
Tonglarga ulardim zangor tunlarni.
Kechalar bog‘bonning uxlashin kutib,
O‘g‘irlab kelardim atirgullarni.

Sen eding umrimning muhabbat fasli
Va meni baxt tomon eltar yo‘l eding.
Rosti, kimliging ham bilmasdim, asli
Ko‘ksimda ochilgan atirgul eding.

Seni sevar edim
va senga har tong
Atirgul tutardim ko‘nglingdek oppoq.
Seni sevar edim, gar ishonmasang
Gul uzib qonagan qo‘llarimga boq.

Nahot ko‘k bog‘boni ko‘rsatdi qahr,
Nahot sevgim fasli poyonga yetdi.
Uxlamas edim-ku tunlari axir,
Ayt, axir kim seni o‘g‘irlab ketdi?!

Dushman askari

O‘g‘lini sog‘inib yig‘lardi ona,
Eshik taqilladi yarim kechada.
Bir yarador askar ko‘kragi qonab,
Hushsiz yotar edi loyli ko‘chada.

Ona o‘z o‘g‘liday qaradi unga,
Askar tez orada hushiga keldi.
Go‘yo bu on ko‘ngli yarim onaning
Farzandi tirilib qoshiga keldi.

Ona xursand edi, baxtiyor edi,
Ammo aylanardi dunyo teskari.
Uning ko‘zlariga termulgan payti
Bildiki, bu yigit dushman askari.

Askar uy to‘rida osig‘liq turgan
Suratni ko‘rdi-yu darhol tanidi.
O‘q tekkandek bo‘ldi ko‘ksiga birdan,
Axir bu yigitni otgan u edi.

Bu dam tig‘ botardi har bir joyiga,
Bo‘g‘ziga tiqilib qolgandi yig‘i.
Ko‘z yosh-la, tiz cho‘kdi ona poyiga,
Kechiring, dedi u bor kuchin yig‘ib.

Bu dam “mehmon”iga boqqan onaning
Yuragidan nelar o‘tayotgandir.
Faqat shu so‘zlarni ayta oldi u:
“Bor bolam, onang zor kutayotgandir”.

Urush

Jang uzoq cho‘zildi,
To‘kildi ko‘p qon.
Qon bor edi hatto ko‘zlar yoshida.
Dunyoni unutib yengilgan o‘g‘lon
Yig‘lardi akasin qabri boshida.

Jang uzoq cho‘zildi,
To‘kildi ko‘p qon.
Boqardi tog‘lar ham qaltirab, cho‘chib.
Jangda g‘olib chiqqan askar ham bu on
Yig‘lardi ukasin jasadin quchib.

YURAGIMDA BIR SO‘Z LOVULLAR



Shahriyor SHAVKAT

Orzu

To Iskandar ko‘zgusiga boqarman – sen ko‘ringaysan,
Ko‘zim darchalarin qattiq yoparman – sen ko‘ringaysan,
Uzugimni yitirgayman, toparman – sen ko‘ringaysan,
Mayli, shodon, mayli, horg‘in ko‘rin menga, ko‘rin, sarvim!

Qo‘llarimni yozib har kun gir aylandim – soat bo‘ldim,
Gohi yupqa namat bo‘ldim, gohi ming-ming qavat bo‘ldim,
Par o‘rinda noz uyqungga botib turgan no‘xat bo‘ldim,
Har na bo‘lib kechdi umrim, ko‘rin menga, ko‘rin, qumrim!

Yo‘lga tushdim, qoldi jannat, zora, zahmat shirin, zora…
Xatm qildim hijroningni qatra-qatra, pora-pora,
Buncha tordir, sitamzordir, qaro g‘ordir bu sayyora,
Bulutlarni kesdi ohim, ko‘rin menga, ko‘rin, mohim!

Bosh egmading, oldim-u bosh, yetti iqlim sari ketdim,
Bog‘da yomg‘ir bo‘ldi talosh, ikki qultum xarid etdim,
Ko‘zlaringda bir tomchi yosh – cho‘kib o‘ldim, shahid ketdim,
Mudom tashna ko‘nglim tusar – ko‘rin menga, ko‘rin, kavsar!

Dilimning to‘rida og‘riq, biroq sendek muhtarammas,
Malham bosay desam – zulmat, ich-ichimdan nur taralmas,
Jonga tegdi manov g‘urbat, boshqa g‘urbat istaram, bas,
Kuyib ketsin tog‘-u mardum – ko‘rin menga, ko‘rin, dardim!

Uzugimni yitirgayman, toparman – sen ko‘ringaysan…

Yorni deb o‘lgan yashar

Ketding, oqqush, behalovat munglig‘im, qayga suzib?
Ko‘ldayin sof ko‘ngil botqoq bo‘ldi-ku, naylar o‘sib,
Ne toparsiz, ey odamlar, oyni qo‘l birla to‘sib,
Ne gunohga iqror bo‘lsin ko‘ylagi butun Yusuf?

Sizga furqat bazmi shirin, kuysa dil, jizza deysiz,
Yig‘lasa yor, ko‘zlariga jom tutib, bo‘za deysiz,
Sho‘rlik ushshoq, fig‘on cheksa, voh-voh-ey, mazza deysiz,
Ko‘p sog‘ingay, may ichinda kiprigi suzsa deysiz...

Qani, oqqush, sani noxush dovuldan o‘zim to‘ssam,
Qaro g‘ordan uchsang, uchsam, ishq uza birga suzsam,
Buncha xormiz, bemadormiz, g‘ussam-ey, maning g‘ussam,
Jon uzilgay, diydoringdan bir zamon umid uzsam...

Siz-chi, bedil, johil avom, cho‘g‘dan o‘t, kutma deysiz,
Majnun – osiy, osiyni hech etagin tutma deysiz,
Muqaddas dor harom senga, ostidan o‘tma deysiz,
Fitna deysiz, fitna deysiz, voh, nechun, fitna deysiz!

Deysiz: ey qul, bu jahonda beko‘ngil bo‘lgan yashar,
Notavonmas, xurjuniga arpa non to‘lgan yashar,
Yanglisharsiz!
Kimki xushvaqt – dardlari ulkanlashar,
Aslida, chin dunyoda chin yorni deb o‘lgan yashar...

Aslida, chin dunyoda chin yorni deb o‘lgan yashar...

* * *

Timsohlar ajdar edi,
Ignalar xanjar edi.
Qancha suv tutsa labi,
Shuncha dil chanqar edi.

Hur emas, hulkar edi,
Quvlasam hurkar edi.
Kelmog‘i – “Qadri navo”,
Ketmog‘i – “O‘rtar” edi.

Manzili Qashqar edi,
Diydori Mahshar edi.
Ko‘zlarim ko‘rsam, kuyar,
Ko‘rmasam, qaqshar edi.

Qorsevar qishlar edi,
Bog‘ to‘la yoshlar edi.

Qo‘l solib cho‘ntagimga,
Qo‘limdan ushlar edi.

Kun-tunim yaproq edi,
Unsurim tuproq edi.
Daromad kamroq, biroq,
Karomat ko‘proq edi.

Kemamiz ulkan edi,
Orzular yelkan edi.
Tishlari bor omadim
Kulgani kulgan edi...

Hur emas, hulkar edi,
Quvlasam hurkar edi.
Kelmog‘i – “Qadri navo”,
Ketmog‘i – “O‘rtar” edi.



Dilnoza KAMOLOVA

* * *

Jilovlanmas hislarim yengib,
Yuragimda bir So‘z lovullar.
Navoiydek topilmas tengi,
Shoiri yo‘q yurtlar huvillar.

Sukut saqlab bo‘lmaydi ortiq,
Turkistonga bo‘laylik roviy.
“Buyuk Tarix” qilmoqda tortiq –
Samarqandda Imom Buxoriy!

Tushlarimda ko‘k ko‘rpasidan,
Yulduz sochgan Mirzo Ulug‘bek.
Poyi Kalon qobirg‘asidan,
Dunyolarga tanilgan o‘zbek!

Men bir oddiy Kitobning qizi,
O‘tdim maysa sochin shonalab.
Tog‘larida payg‘ambar izi,
Toshlarini terdim donalab...

Ko‘zni olar ko‘kda mis tanga,
Kunduzlari beribdi chiroy.
Kechalari muallaq turgan –
Baldog‘imga o‘xshar to‘lin oy!

Erkinlikning zavq-u shavqida,
Yashayapman qalbimda jannat.
To o‘lguncha Vatan ishqida,
Yonmoqlikning o‘zi katta baxt!

To‘maris momo monologiu

Huv asrlar qatida,
Huv yillarning ortida,
Huv fasllar yurtida,
Senga madad bo‘lay deb
Lashkarlaring turibdi,
Ko‘rayapsanmi o‘g‘lim!

Saf-saf bo‘lgin saf bo‘lgin,
Sen – Vatan taraf bo‘lgin!

Shiroq bobong o‘ngingda,
Manguberdi so‘lingda,
Temur bobong yo‘lingda
Duo berib turibdi,
Ko‘rayapsanmi o‘g‘lim!

Saf-saf bo‘lgin, saf bo‘lgin,
Sen Otang taraf bo‘lgin!

Jadid qonin to‘kkanlar,
Bosmachi, deb so‘kkanlar,
Yurtingga ko‘z tikkanlar,
Gala bo‘lib bugun ham
Tishin qayrab yotibdi,
Ko‘rayapsanmi o‘g‘lim!

Saf-saf bo‘lgin, saf bo‘lgin
Sen Onang taraf bo‘lgin!
Huv tog‘larning ortida,
Huv sahrolar ortida,
Huv o‘rmonlar ortida
Olov yonib yotibdi,
Ko‘rayapsanmi o‘g‘lim!

Saf-saf bo‘lgin, saf bo‘lgin
Sen Tinchlik taraf bo‘lgin!

Suyanching, yelkadoshing,
Qozoq, qirg‘iz jondoshing,
Tojik, turkman qondoshing,
Ona yurtni asrashga
Birgamiz, deb turibdi,
Ko‘rayapsanmi o‘g‘lim!

Saf-saf bo‘lgin, saf bo‘lgin
Sen Turon taraf bo‘lgin!

MA’RIFATLI KISHILAR

HIMMATI BORNING HURMATI BOR

Kimki qo‘liga mo‘may pul tushsa shaharning qoq markazidan dang‘illama imorat, hashamdor do‘kon yoki shohona oshxonalar qurayotgan bir zamonda karmanalik 74 yoshli Burhon bobo Jo‘rayev butunlay boshqacha yo‘l tutdi. 50 yil davomida tergan-tergilagan 10 mingdan ortiq kitoblarini bir joyga to‘plab, xonadonining bir qismini katta kutubxonaga aylantirdi. Bu ishi bilan Karmanadagi eng katta va saxiy boyga aylandi. Eng muhimi, kitobxon otaxon 74 yoshiga qadar to‘plagan kitoblarining uch mingdan ortig‘ini o‘qib chiqishga ulgurgan.



Karmana tumanining Bog‘imurod qishlog‘idagi kamtargina hovlida yashayotgan Burhon Jo‘rayevning xonadoniga mehmonga kelgan Navoiy kon metallurgiya kombinati kasaba uyushmasi qo‘mitasining sobiq rahbarlaridan biri torroq xonadagi qo‘lbola javonga did bilan terib qo‘yilgan kitoblarni ko‘rib hayratga tushdi. Bir nechtasini varaqlab, ko‘z yugurtirgan bo‘ldi. Keyin bir piyola choy ustida Burhon bobo bilan ancha suhbatlashdi. Tabiiyki, kitob va kitobxonlik haqida gap ketganda, shartta dilidagini aytdi: “Mana shu kitoblaringizni kombinat kutubxonasiga bersangiz, oilangizga Navoiy shahrining qoq markazidan ikki xonali uy sovg‘a qilaman”, dedi. Keyin mezbon mening bu taklifimga so‘zsiz rozi bo‘ladi, degan o‘y bilan biroz kutdi. Ammo aytgan gapi og‘zida qoldi.

“Xohlaganlar kelsin, qiziqadigan kitoblarini o‘qisin, qaytarib olib kelish sharti bilan uylariga ham berib yuborishim mumkin. Lekin hech kimga sotmayman va hech narsaga almashmayman”, dedi o‘jarlik bilan. Qo‘lidagi piyolani dasturxon chetiga to‘ntarib qo‘yib, kombinat sanatoriysidagi kutubxona uchun tekinga ikki yuz dona kitob sovg‘a qilishini xijolatomuz kayfiyat bilan bildirdi. Bundan bir yo‘la o‘zining ham, o‘tirgan joyida nigohini javondagi kitoblarga qadab o‘y surayotgan mehmonning qalbi ham, sal bo‘lsa-da, ravshan tortgandek bo‘ldi. Do‘stona suhbat, toza va samimiy munosabat yakunida mehmonni xush kayfiyat bilan kuzatib qo‘ygan Burhon bobo uyiga qaytib kirgach, xotini xarxasha qildi:

– Namuncha o‘jarlik qilmasangiz, yashashimizni qarang, uyimiz musichaning inidek tor, ko‘rimsiz. Xudo berib turgan paytda, nega unamadingiz-a? Sal o‘ylab ish qilsangiz-chi. Nima qilasiz bu kitoblarni? Men hoziroq kombinatga borib: “Biz kitoblarni uyga almashishga rozimiz”, deyman. Darrov ko‘chib o‘tamiz.

Erining battar qaysarligi tutdi. Xotiniga sen nimani bilasan, degandek bir o‘qraydi-yu, kiyimlarini almashtirib ko‘chaga chiqib ketdi. Ikki o‘rtada dili xufton bo‘ldi. Beray desa, kitoblarini ko‘zi qiymaydi. Bermay desa, haqiqatan ham uy-joyini sal-pal epaqaga keltirish kerak.

Gapning naqdini aytganda, ko‘rimsizgina bu xonadonda kitob hamma narsadan ko‘p. Ba’zan o‘qituvchilar, ba’zida o‘quvchilar, onda-sonda davlat idoralarida ishlaydigan kishilar, talaba qizlar, ro‘zg‘or tashvishlari bilan uyga qamalib qolgan bekorchi ayollar kitobga kelib turadi. Xohlaganini topib, olib ketishadi. Ular faqat rahmat aytishdan nariga o‘tmaydilar. Ba’zi birovlar olgan kitoblarini yirtib, urintirib-surintirib ham olib keladi. Otaxon afsus qiladi. Ammo nachora, besh barmoq barobar emas...

Bu oilaning kutubxonasi katta xazina. Bundan bir necha yuz yillar burun bitilgan, tayyorlangan kitoblar o‘tmishdan, bugundan, kelajakdan so‘zlaydi. Ibn Sino, Beruniy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Nodira, Ogahiy, Mashrab, Qodiriy, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov asarlari, zamonamiz adib va shoirlarining betakror bitiklari, Konfutsiy, Nisshe, Xeminguey, Mopassan, Tolstoy, Dostoyevskiy, Chexov, Pushkin, Chingiz Aytmatovlarning qimmatbaho durdonalari kishining havasini keltiradi. Kutubxonaga kirsangiz, bu xonadonda yashayotganlar kitob o‘qishdan, kitoblarni asrab-avaylashdan boshqa ish ham qilarmikan, degan xayolga borasiz. Xadicha momo: “Uyimiz savil salgina torroq-da” desa, xo‘jayini: “Ko‘nglingni keng qil, uying to‘la odam-ku, durustroq qaragin atrofga”, deydi hazillashib.

Yaqinda keksa kitobxon bilan tanishish maqsadida Karmanadagi bu xonadonga men ham ming istihola bilan tashrif buyurdim. Yoshi yetmish to‘rtga yetsa-da, hamon velosipedda qishloq kezadigan otaxondan: “Yig‘gan kitoblaringizni shaharning qoq markazida qurilgan yangi uyga almashmaganingizni tushunish mumkindir, ammo viloyat hokimining hovlingizda kutubxona qurib berish rejasiga nima uchun unamadingiz?” deb so‘radim. Otaxon gap o‘zanini boshqa tomonga burdi. Oliy o‘quv yurtida tahsil olmaganligi bois farzandlarini o‘qitish uchun kecha-yu kunduz ishlaganini, kampirining qistovlariga ko‘nmay juda to‘g‘ri ish qilganligini zavq bilan aytib berdi.

O‘rni kelganda mendan uyimizda qancha va qanday kitoblar borligini surishtirdi. Adabiyotni, falsafani, odamiylikni, insof va diyonatni, o‘z milliyligimizni sevishni va unutmaslikni maslahat qildi. O‘zining hayotini kitob bilan bog‘lash oson bo‘lmaganligini qayta-qayta takrorladi.

Xayrlashayotganimizda hovlisining kiraverishida o‘g‘li qurayotgan imoratning bitta xonasini yangi kutubxonaga aylantirish niyati borligini aytdi.

Chekka bir qishloqda kamtargina yashayotgan va bor-yo‘g‘i o‘rta ma’lumotli otaxonning shuncha kitob yig‘gani, hali-hamon zavqlanib o‘qishda davom etayotgani ko‘p qatori meni ham hayratga soldi.

Normurod MUSOMOV

KO‘RGAZMA SIZNI KUTMOQDA



HAQIQATGA ELTUVCHI “XOTIRA YO‘LAGI”

Bugun jadidlik harakatining boshlanishi, mazkur harakatning yetuk namoyandalari va ularning izdoshlari hayoti hamda faoliyatiga qiziqish har qachongidan ham ortmoqda. Kuni kecha poytaxtimizdagi Tasviriy san’at galereyasida ochilgan “Xotira yo‘laklari” ko‘rgazmasi ham Turkistondagi jadidlik harakati va uning namoyandalari faoliyatiga bag‘ishlangani bilan nafaqat san’at muxlislarida, balki poytaxt aholisi va mehmonlarida ham katta qiziqish uyg‘otdi. Keng ko‘lamda namoyish etilayotgan mazkur ekspozitsiyada XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston tarixi, xususan, ziyoli jadidlar tomonidan o‘tkazilgan ta’lim sohasidagi islohotlar, ularning jamiyatni rivojlantirish borasidagi qarashlari hamda huquqiy demokratik davlat qurish yo‘lidagi intilishlariga doir asl manbalar, hujjatlar namoyish etilmoqda.



Jadid bobolarimizning hayoti fojiali yakun topgani nazarda tutilgan holda ko‘rgazma “yo‘lak” shaklida tashkil etilgan va har bir “yo‘lak” muzeyga keluvchilarni bir bo‘limdan ikkinchi bo‘limga go‘yo vaqt oralig‘idan olib o‘tayotgandek tuyuladi.

Ma’lumki, jadidlarning asosiy maqsadi xalq hayotini yaxshilash, savodxonlikni oshirish, inson huquqlarini himoya qilish kabi hayotiy masalalarni dunyoning taraqqiyotga yuz tutgan davlatlari darajasiga ko‘tarishdan iborat bo‘lgan. Zero, jadidlar dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, Yevropa davlatlarida, Yaqin Sharqda, Turkiyada bo‘lib, o‘z haq-huquqlarini bilib, milliy-ma’naviy qadriyatlar asosida yashash lozimligini ko‘rdilar va bundan tegishli xulosa chiqardilar.

Ko‘rgazmani shakllantirishda jadidlikning bizning hududimizda shakllanishiga omil bo‘lgan shart-sharoitlarga, jumladan, yurtimizda ushbu harakatning oldingi saflarida borgan Fitrat, Cho‘lpon, Behbudiy, Munavvarqori kabi ulug‘ yurtdoshlarimiz faoliyatini chuqur yoritishga e’tibor berilgan. Shu bilan birga, ko‘rgazmada o‘sha davrda yashagan aholining ahvoli, maktablarning tashkil etilishi, teatr san’atiga e’tibor kabi mavzular ham fakt va suratlar misolida keng namoyish etilgan.

Aynan jadidlik harakati va uning namoyandalari hayotiga bag‘ishlangan bu kabi ko‘rgazmalar yosh avlodni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, e’zozlash ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi sir emas. Yangi O‘zbekistonni bunyod etishga, yangicha fikrlashga kirishgan ekanmiz, bugun ham yosh jadidlarga ehtiyojimiz bor.

G.FAYZIYEVA

AKS SADO

AYB KIMDA?

“Jadid” gazetasining 2-sonida e’lon qilingan Go‘zal Xalilovaning “Tiniq osmon, yashil makon” maqolasi ko‘pdan beri o‘ylab yurganlarimni qog‘ozga tushirishga turtki berdi.

Bilasiz, sayyoramizda Shvetsiya degan davlat bor. Bu davlat ko‘p yillardan buyon dunyodagi eng farovon mamlakatlar o‘ntaligidan joy olib keladi. Ayrim olimlar fikricha, bunga sabab mamlakat aholisining “Lagom”ga muvofiq yashashlari ekan.



Shvetsiyaliklarning odob-axloq normalari, turmush tarzini belgilab beruvchi asosiy odobnomasi, qo‘llanmasi “Lagom”, deb ataladi. “Lagom” falsafasi vikinglar davridan qolgan, deyishadi. So‘zning o‘zi ham “lagetom” – “aylana bo‘ylab uzatish” so‘zlari birikmasidan kelib chiqqan ekan. Qadim zamonlarda marosimlarda asal va mevalardan tayyorlangan sharbat idishi doira bo‘ylab uzatilar ekan. Bu idishdan har kim boshqalarga ham yetishini mo‘ljallab ichishi kerak bo‘ladi. Ya’ni bu dasturxon atrofida sendan boshqalar ham bor, o‘zingdan boshqalarni ham o‘yla, xudbinlik qilma, degan qat’iy tamoyilni o‘zida jamlagan bu odat keyinchalik paydo bo‘lgan shvedlar odobnomasi – “Lagom” uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. “Lagom” so‘zi hozirda “yetarli”, “yetarlicha”, “muqobil”, “to‘g‘ri”, “mo‘tadil”, “muvozanat”, “optimal”, “mos”, “ko‘p ham emas, oz ham emas” kabi so‘z va iboralar orqali tarjima qilinadi. Bu ehtiyotkorlik, oqilonalik, to‘g‘rilik, mo‘tadillik kabi tushunchalarni o‘zida jamlaydi. Shvedlarda ijtimoiy hayotdagi salbiy o‘zgarishlar “Lagom” tamoyilidan chetga chiqish sifatida qaraladi. Ya’ni odamlar qilgan ishlari “Lagom”ga to‘g‘ri kelish-kelmasligiga qarab baholanadi. Ishi, tutumi o‘z odobnomalariga to‘g‘ri kelsa – yaxshi, to‘g‘ri kelmasa – yomon. Ushbu butun boshli falsafaning o‘zagi barcha narsada mo‘tadillik, ko‘p ham emas, oz ham emas, aynan keragicha miqdorga egalik va tasarruf qilishdir. “Lagom” usulidagi hayot esa, oddiy va ortiqcha hamda qalbaki buyumlarsiz turmush tarzi degani.

Ana shu milliy qoidalar majmui shvedlar hayotining barcha sohalarini qamrab olgan. Har bir sohada – xizmat, munosabatlar, interyer dizayn, uslubda shvedlar shunga muvofiq ish tutishadi.

Shvetsiyaliklar vaqtini tabiat qo‘ynida o‘tkazishni xush ko‘rishar ekan. Har bir kishi atrofdagilarning tinchligini buzmagan holda erkin sayr etishi, qo‘ziqorin va mevalar terishi, istalgan yerda chodirlar o‘rnatishi mumkin. Shuning uchun shvedlar har qanday ob-havoda ham shahar tashqarisiga chiqib, sayillar uyushtirishadi. Ta’tillarini ham ko‘proq o‘z yurtlarida o‘tkazadilar. Dala hovli yoki yozgi uylariga ketishadi, u yerda kun bo‘yi mutolaa qiladilar, cho‘miladilar, stol o‘yinlarini o‘ynaydilar va, eng asosiysi, hech qayerga shoshilmaydilar.

2016-yilda yovvoyi tabiat fondi tadqiqot o‘tkazib, doimiy ravishda tabiat qo‘ynida dam oladiganlar o‘zlarini baxtliroq va sog‘lom his etishlarini aniqladi. Boshqa tadqiqot ham bunday sayohatlar vaqtida odam xotirjam bo‘lib, ruhiy yuksalishi va ijod bilan shug‘ullanishga moyilligi ortishini ko‘rsatgan.

Xullas, inson tabiat bag‘rida o‘zini baxtli sezadi. Zero, odamzod ham shu tabiatning bir qismidir. Muhimi, tabiat qo‘ynida boshqalarga ziyon yetkazmay sayr qilish, dam olish baxtli odamlar mamlakatining asosiy amal qiladigan qoidalari majmuida belgilab qo‘yilgani. Yuqoridagilarni yozishdan maqsad, shvedlar ona tabiatga ziyon yetkazmaslikni, suvni ifloslamaslikni odob-axloq me’yori sifatida bilishlarini aytish edi.

Esingizda bo‘lsa, uzoq o‘tmishda emas, yaqin-yaqinlargacha keksalar “Suvga tupurma!” deb nasihat qilishardi. Suv ichib bo‘lgach, Xudoga shukr deyish kerak, deb o‘rgatishardi. Balki hozir ham bunday nasihat beradigan keksalar bordir. Lekin bu gaplarga amal qilyapmizmi? Amaldagi holat esa, buning tom ma’noda teskarisini ko‘rsatib turibdi-ku. To‘g‘ri, sanoat korxonalari ishlayapti, mashinalar ko‘p. Axir, shularsiz ham yashab bo‘lmaydi-da. Biroq shahar oralagan ariq, daryo va kanallarning suvlari chiqindiga to‘lib ketganiga kim aybdor? Suv maishiy chiqindilarni, sigaret qoldiqlarini, baklashka-yu sellofan paketlarni tashlaydigan joymi? Suv ne’mat emasmi?! Bog‘lar, gulzor va maysazor maydonlarda dam olib bo‘lgach, hamma chiqindi-yu qoldiqlarni tashlab ketiladigan joymi? Biz bunday befarosatlikka qachon o‘rgandik, qachon ko‘nikib ulgurdik? Axir, biz tabiatga muhabbat bilan munosabatda bo‘lishni, uni sevishni, asrab-avaylashni birovdan o‘rganadigan xalq edikmi? “Bog‘i firdavs latif ast, valekin zinhor Tu g‘animat shumur in soyai bedu labi kisht” (Firdavs bog‘i, darhaqiqat, latifdir, lekin sen zinhor mana shu ekinzor bo‘yi va tol soyasini g‘animat tut) kabi baytlarni aytgan hazrat Hofiz sharqlik emasmidi?! Bunday baytlarni yod aytib yurganlar sharqliklar emasmidi?! Amir Temur birgina Samarqand atrofida qancha bog‘ tiklaganini yaxshi bilamiz-ku. Hazrat Navoiyning tabiatni vasf etgan misralari-yu tiklagan bog‘-rog‘lari ibrat emasmi?!

Bilgichlar aytadiki, qonni tozalasa, tanadagi dardlar arirkan. Tabiatni, atrof-muhitni bir vujud deb qaraydigan bo‘lsak, uning ham qonini tozalash orqali dardlarini aritsa bo‘lar. Zero, tabiatning tomirlari jilg‘a, ariq, daryo va dengizlar bo‘lsa, bu tomirlardagi qon esa shu o‘zanlarda oqib kelib, barcha mavjudot tirikligini ta’minlaydigan suvdir. Demak, suv toza bo‘lsa, ifloslanmasa, havo ham tozalanadi, ifloslanmaydi.

Suvni ifloslamasak, atrofni chiqindi maydonga aylantirmasak, to‘rt enlik yaydoq yerimiz bo‘lsa ham, ekin eksak, ko‘chat o‘tqazsak, havo ham tozalanib, osmonimiz g‘ubor-changlardan xoli bo‘larmidi. Biz ham o‘zimizga nasib etgan shunday jannatmonand yurtda yashab turib, musaffo tabiatimiz bag‘rida o‘zimizni baxtiyor sezarmidik. Axir, inson baxtiyorligining, farovonligining bosh omili tabiat bilan bevosita bog‘liq ekan-ku.

Biz hammamiz bir dasturxon atrofida o‘tirgan vikinglardekmiz. Unutmang, bu “dasturxon” atrofida sizdan boshqalar ham bor, bu “dasturxon”da bizdan keyingi avlodlarning ham haqqi bor!

Mansur JUMAYEV

JADIDSHUNOSLIK

IKKI JADID HAQIDA BIR MULOHAZA

Xorazmdagi jadidlik harakati va unga mansub siyosiy harakat — "Yosh xivaliklar"ning namoyandalari orasida Bobooxun Salimov va Bekjon Rahmon boshqa safdoshlaridan ijodkorligi bilan alohida ajralib turadi.

Bobooxun Salimov (1873 — 1929) otasi Salimoxun vafotidan so'ng, 1912 — 1916-yillarda Xiva xoni qozikaloni bo'lgan. Shuningdek, Polvonniyozhoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Xudoybergan Devonov, Sultonqori Jumaniyozov singari "Yosh xivaliklar" harakatining a'zosi, 1920 — 1924-yillarda esa, Xorazm Xalq Respublikasida adliya noziri, RSFSRga yuborilgan diplomatik missiya rahbari, Afg'onistonda elchi va boshqa vazifalarda faoliyat yuritgan.





Umid BEKMUHAMMAD,
Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi

"Ojizo" taxallusi bilan ijod qilgan Bobooxun Salimov she'rlarida mustamlakachilik asorati davriga xos mahzunlik, jamiyatdagi voqeliklarga real baho berish aks etadi:

Ojizo, zor ko'ngillar,
Bo'ldi xandon oqibat.
Bizlarga zulm etganlar,
Bo'ldi yakson oqibat...

1920-yili xonlik tugatilib, Xorazm Xalq Respublikasi o'rnatilgach, jadidlar g'oyasini amaliyotga joriy etish imkoniyati paydo bo'lgan edi. Bobooxun 1922-yil fevral oyidan Xorazmda maorif va madaniyat nozirligida maktablar uchun yangi o'quv qo'llanmalari yaratish komissiyasining raisi bo'lib ishlay boshlaydi. Bu vazifada ishlab turib, o'zi ham maktablar uchun "Alifbe" va "O'qish" kitobini, maslakdosh jadid birodari Bekjon Rahmon bilan hamkorlikda o'quv qo'llanmalar yozadi. Uning "Maktab" sarlavhali she'rida xalq ta'limi uchun sidqidildan ishlagan jadid ziyolisining yorqin qiyofasi aks etgan:

Xushdur ne balo havoyi maktab,
Jon o'lsa ravo fidoyi maktab.
Maktab demaki madori ilmdir,
To ilm iladur baqoyi maktab.

Xorazm elin aylagay munavvar,
Nuri qamari saymoyi maktab.
Mingdan birini tugatmas Ojiz
Yuz yil desa ham sanoyi maktab.

Bobooxun Salimov 1924-yildagi milliy chegaralanishdan so'ng siyosatdan chekinib, Gurlan va Mang'it hududlaridagi yerlarida dehqonchilik qilib, taqdir sinovlarini boshdan kechirgan va 1929-yili vafot etgan.

Fitrat, Cho'lpon singari jadid namoyandalari bilan safdosh, maslakdosh bo'lgan yana bir xorazmlik jadid Bekjon Rahmon ilk bor "Inqilob quyoshi" gazetasiga asos solgan jurnalist va muharrir, adabiyotshunos va folklorshunos, Ichan qal'a muzey qo'riqxonasining tashkilotchisi, maktablar uchun darslik, o'quv qo'llanmalari yozgan pedagog sifatida tarixda qolgan.

Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida Bekjon Rahmon hamda Muhammad Yusuf Devonzodaning asaridan g'oyat ta'sirlanganini yozgan va bu kitobning musiqashunoslikdagi ahamiyatiga yuksak baho bergan.

1887-yili xon mahramlaridan bo'lgan Rahmonbergan oilasida tug'ilgan Bekjon bolaligidan ilm-u ma'rifatga intilib voyaga yetadi. Otasi Rahmonbergan Xiva xonligi tarixida islohotchi bosh vazir Islomxo'ja (1872 – 1913)ning yordamchisi bo'lgan. U ustozi bilan XX asr boshlarida Xivada barpo etilgan pochta, telegraf, shifoxona, masjid va minora bunyod etilishida katta xizmat ko'rsatgan. Rahmonbergan jadidlarni qo'llab-quvvatlovchi bosh vazir Islomxo'janing maslahatiga ko'ra, g'ayratli o'g'li Bekjonni Istanbulga o'qishga yuboradi. Bekjon 1913-yilning iyulidan 1918-yilgacha Istanbul universitetida tahsil oladi.

1920-yili xonlik tugatilib, Xorazm Xalq Respublikasi barpo etilgach, "Yosh xivaliklar" qator islohotchi safdoshlari bilan hukumat tarkibiga kiradi. Dastlab Madaniyat, so'ngra Xalq maorifi noziri, keyin XXR markaziy ijroiya qo'mita ish boshqaruvchisi bo'ladi. Bekjon Rahmon madaniyat noziri sifatida 1920-yili Xorazmning o'tmishdagi madaniyati va osori-atiqalarini kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish maqsadida xalq madaniyati muzeyini barpo etadi hamda unga rahbarlik qiladi. Shuningdek, 1923-yili Xorazmda ilk bor musiqa maktabini tashkil etib, voha musiqa nazariyasi va tarixi, Xorazm maqomlari hamda usullari, nota yozuvining ixtiro qilinishiga oid "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobini Devonzoda bilan birga yozib, Moskvada nashr ettiradi.

Bekjon Rahmon "Inqilob quyoshi" gazetasidan tashqari, 1920 – 1924-yillarda vohada nashr etilgan "Qizil Xorazm", "Maorif", "Xorazm xabarlari", "Yordam", "Yoshlar ovozi", "Ishchilar tovushi", "Qopqon" singari gazetalarni tashkil etishda bosh-qosh bo'ladi. Bu nashrlarda Faqiriy, Komil Devoniy, Mutrib, Rog'ib singari shoirlarning she'r-u g'azallarini chop ettiradi, adabiyotshunos sifatida adabiy tahliliy maqolalar yozadi.

1923-yili "Otalar so'zi" nomli kitobini nashr qildirib, unga xorazmliklar orasida keng tarqalgan maqol, hikmatlarni kiritgan. Mazkur to'plamda "Ertaga osh qolsa – davlat, ish qolsa – mehnat", "Davlat – og'zibirchilik", "Rohat – mehnatning orqasida", "O'tni kovlasang o'char, qo'shnini kovlasang ko'char", "O'g'ri boyimas, yolg'onchi yolchimas", "Onasini ko'r, qizini ol, qirog'ini ko'r, bo'zini ol" singari pand-nasihat ruhidagi olti yuzga yaqin maqol va hikmatli so'zlar jamlangan.

Xalq maorifi noziri bo'lib ishlagan paytida Bekjon Rahmon vohada yangi maktablar tashkil qilish, uzoq ovullardagi bolalarni maktabga jalb etish, ta'lim maskanlarini o'qituvchilar bilan ta'minlashda jonkuyarlik qilgan.

Bekjon Rahmon 1920-yil 13-noyabrda Buxoro va Xorazm respublikalari o'rtasida do'stona hamda iqtisodiy, madaniy aloqalarga doir shartnomani tuzishga rahbarlik qilgan diplomat edi. 1924-yili o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishidan keyin XXR tugatilib, Xorazm okrugi tashkil etilgach, Bekjon Rahmon 1925–1926-yillarda okrug maorif bo'limi mudiri vazifasida ishlaydi. Keyin jadid do'stlaridan, o'sha vaqtda O'zbekiston xalq komissarlari sovetining raisi bo'lib ishlayotgan Fayzulla Xo'jayevning taklifiga ko'ra, Samarqandda tashkil etilgan Fan qo'mitasida faoliyatini davom ettiradi.

Shu davrda chiqib turgan "Alanga", "Yer yuzi" jurnallarida adabiyotshunoslik, tilshunoslikka oid maqolalarini chop ettirib, respublikaning old ziyolilaridan biri sifatida taniladi. 1926-yil 26-fevral – 5-mart kunlari Boku shahrida o'tkazilgan Birinchi Turkologiya qurultoyida qatnashish uchun O'zbekiston delegatsiyasi tarkibiga kiritiladi. Bu qurultoyda dunyoning mashhur 131 nafar olimi qatnashgan. O'zbekistondan Ashurali Zohiriy, Elbek, Rahim Inog'omov, G'ozi Olim Yunusov, Nazir To'raqulov, Shokirjon Rahimiy, I.Sadriy, A.Abdujabborov qatorida Bekjon Rahmon ham bor edi.

Umuman, Xorazm jadidlari orasida Bekjon Rahmon va Bobooxun Salimov o'zlarining ijodkorligi bilan ajralib turgan. Afsuski, har ikkala jadid ziyolisi bir yilda – 1929-yili bevaqt vafot etishdi. Aniqlangan ijod namunalari ularning ilmiy-ijodiy salohiyati yuqori ekanini ko'rsatadi. Xorazmlik jadid ijodkorlarining hayoti, ijodini tadqiq qilish borasidagi izlanishlar davom etishi lozim.

MUNOSABAT



SHUNDAY KUTUBXONA, ALBATTA, KERAK

"Jadid" gazetasining chop etilayotgani munosabati bilan oilamiz nomidan barcha vatandoshlarni chin qalbdan muborakbod etamiz.

Gazetada bosilgan "Turon" jadid kutubxonasi bunyod etilsa..." maqolasidagi taklif bizga juda manzur bo'ldi.

Har bir kitobsevar inson bu taklifni qo'llab-quvvatlaydi, bu kutubxona kelajak avlodimiz uchun noyob ziyo maskani bo'lib qoladi.

Jadid kutubxonasi tashkil qilinsa, albatta, biz – Erkin Vohidov oilasi ham ayrim tarixiy, jadidlik harakatiga taalluqli kitoblar bilan o'z hissamizni qo'shamiz...

Yangi kutubxonada ziyolilar adabiy meros jamg'armasini tashkil etishni ham tavsiya qilgan bo'lar edik.

Nozima VOHIDOVA

TAHRIRIYATDAN: Gazetamizning ilk sonida e'lon qilingan filologiya fanlari doktori Bahodir Karimovning "Jadid" kutubxonasi bunyod etilsa..." sarlavhali maqolasida bildirilgan takliflar ko'pchilikda jiddiy qiziqish uyg'otdi. Jumladan, ustoz Abdulla A'zam o'z chiqishlarida: "Hurmatli ma'rifatparvarlar, millatparvarlarning vorislari, bu taklifni qo'llab-quvatlaylik, imkoni bo'lsa, binosini ham tiklaylik", deya yurtdoshlarimizni kutubxonani kitoblar bilan boyitishga, qolaversa, yangi kutubxona bunyod etishga chaqirdi. Shu singari takliflardan ayrimlarini e'tiboringizga havola etamiz.

IKKI NOYOB KITOB

Bizning buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz o'z ishlarini yangi maktab va kutubxonalar ochishdan boshlagan. Turkistonning Buxoro, Xiva, Qo'qon, Namangan, Toshkent va boshqa shaharlaridagi jadidlar ochgan kutubxonalarda aholi, ayniqsa yoshlar (maktab o'quvchilari va madrasa toliblari) jadid gazetalari va kitoblar bilan tanishganlar. Bu kutubxonalar o'zaro fikr almashuv uchun katta imkoniyatlar yaratgan.

1918-yilda jadidlar o'z kuchlari, o'zlarining kitoblari bilan Toshkentda "Turon" kutubxonasini ochishgan. Bu kutubxonada arab imlosidagi ko'plab kitoblar jamlangan. Jadidlarning o'z kutubxonalari ham kattagina bo'lgan. Birgina Shokirjon Rahimiyning uyida XVIII – XIX asrlarda chop etilgan mingdan ortiq kitob, qo'lyozma va xaritalar bor edi. Ko'plab ma'rifatparvarlarning kitoblari qatag'on davrida yo'q qilindi.

Jadid kutubxonasiga ehtiyoj bor va buni tashkil qilish lozim. Aholining qo'lida ko'plab qadimiy kitoblar saqlanayotgani shubhasiz.

Men keksayu yosh fidoyi yurtdoshlarimizni yangi kutubxona ochilishida faol ishtirok etishga chaqiraman. O'zim Shokirjon Rahimiydan meros – 1913-yilda chop etilgan "Tarixi muqaddas" va 1925-yilda nashr qilingan "Sovg'a" nomli kitoblarni topshiraman.

Bu kutubxona farzandlarimiz bilim oladigan chinakam xazina bo'ladi.

Ulfat SOBIROV,
mehnat faxriysi

XOTIRA AZIZ

(Boshlanishi o'tgan sonda.)

Xo'jayev Muxammadjon 1898-yili tug'ilgan, Qo'qon shahridan, sobiq savdogar, "Milliy ittihod" millatchi, aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi, 1931-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun oliy jazoga hukm etilgan, keyin 10 yil qamoq jazosiga o'zgartirilgan, hibsga olingan vaqtda magazinda kassir edi. Farg'ona shahar bo'limi taqdim qilgan 1726-sonli ish bo'yicha otuvga hukm qilingan. Aholi orasida aksilinqilobiy, millatchi sifatida targ'ibot olib borganlikda ayblangan.

QATAG'ON QURBONLARI

Sayfutdinov Sotiboldi 1886-yili tug'ilgan, Qo'qon shahridan, savdogar o'g'li, 1917–1918-yillarda aksilinqilobiy, millatchi, "Sho'roi islom" tashkiloti a'zosi. Qo'qon muxtoriyati davrida qurolli guruhlar tashkil etish ishlarini olib borgan. 1919-yildan "Milliy ittihod" tashkiloti a'zosi. 1927-yili bir vagon pillani noqonuniy sotib yuborgani uchun 6 yil qamoqqa hukm etilgan, 1936-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa tushgan, hibsga olingan vaqtda qishloq magazini direktori edi. Qo'qon shahar bo'limi taqdim qilgan 1635-sonli ish bo'yicha otuvga hukm qilingan. Aholi orasida millatchilik targ'iboti olib borganlikda va "xalq dushmanlari"ni maqtaganlikda ayblangan.

Shokirov Mirzaxon Maxsum 1888-yili tug'ilgan, Qo'qon shahridan, sobiq savdogar, 1918-yili "Sho'roi islom" aksilinqilobiy, millatchi tashkilotining a'zosi bo'lgan, Qo'qon muxtoriyati davrida guruhlar tashkil etishda ishtirok etgan. 1919-yildan aksilinqilobiy millatchi "Taraqqiyparvar" tashkilotining a'zosi, quloq qilinishdan qochgan, hibsga olingan vaqtda hammomda qorovul bo'lgan. Qo'qon shahar bo'limi taqdim qilgan 1678-sonli ish bo'yicha otuvga hukm etilgan. Aholi orasida aksilinqilobiy millatchilik targ'iboti olib borganlikda, SSSRdagi ocharchilik to'g'risida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan.

Qosimov Xoshim 1882-yili tug'ilgan. Kirov rayoni Hojibek qishlog'idan, quloq qilingan, 1930-yili davlat majburiyatini bajarmagani uchun 3 yil qamoqqa hukm etilgan, hibsga olingan vaqtda kooperatsiyada qorovul bo'lgan. "Milliy ittihod", "Sho'roi islom" aksilinqilobiy tashkilotlariga a'zo bo'lganlikda, doimiy ravishda kolxozchilar orasida kolxozga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblangan.

G'iyosov Sirojiddin 1900-yili tug'ilgan, Namangan shahridan, "Milliy ittihod" aksilinqilobiy guruhi a'zosi, hibsga olingan vaqtda "O'zbektorg" magazini mudiri bo'lgan. 3378-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatish lageriga yuborilgan, jazo muddati 1937-yil 22-avgustdan hisoblangan. Aholi orasida doimiy ravishda isyonga da'vat va aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblangan.

Ahmad Qori Tojixo'jayev 1887-yili tug'ilgan, Namangan shahridan, sobiq savdogar, o'tmishda "Milliy ittihod" va "Nashri Maorif" millatchi aksilinqilobiy tashkilotlari a'zosi bo'lgan, hibsga olingan vaqtda artel bo'yoqchisi edi. 3440-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat tuzatish lageriga hukm etilgan. Jazo muddatini o'tash 1937-yil 25-avgustdan hisoblangan. Aholi orasida doimiy ravishda millatchilik, aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, terroristik kayfiyatda bo'lganlikda ayblangan.

Mir Obid Maqsumov Hurmat 1885-yili tug'ilgan, Namangan shahridan, sobiq savdogar, sudlangan, hibsga olingan vaqtda rayijroqo'mda ishchi, o'tmishda sobiq politsiyachi va "Milliy ittihod" millatchi aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgan. 4953-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatish lageriga hukm etilgan, jazo muddatini o'tash 1937-yil 3-sentabrdan hisoblangan. Atrofidagilar orasida aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, sovet hukumatiga qarshi kurashga chaqirganlikda, revolyutsiyadan oldingi tuzumni maqtaganlikda ayblangan.

Ahmedov Haydar 1905-yili tug'ilgan, Buxoro shahridan, quloqqa tortilgan, qatag'ondan yashiringan, "Milliy Ittihod" millatchi aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a'zosi, hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo'lgan, jazo muddatini o'tash 1937-yil 15-sentabrdan hisoblangan. Kolxozchilar orasida millatchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, SSSRdagi ocharchilik haqida mish-mishlar tarqatganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

Maxmudxo'jayev Bo'rixo'ja 1880-yili tug'ilgan. Buxoro shahridan, savdogar, "Milliy ittihod" millatchi aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a'zosi, hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo'lgan. 2321-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatish lageriga hukm qilingan, jazo muddatini o'tash 1937-yil 19-avgustdan boshlangan. Atrofidagilar orasida doimiy ravishda millatchilik ruhidagi aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda, "Milliy ittihod" aksilinqilobiy tashkilotining taniqli arboblari bilan aloqadorlikda ayblangan.

0740-sonli ish bo'yicha faqat andijonliklardan 28 kishi ustidan hukm chiqarilgan. Ularning barchasiga "Milliy ittihod" tashkiloti a'zosi, degan ayb qo'yilib, hukm chiqarilgan. Ularni aynan keltiramiz:

Niyozov Xasanxon 1895-yili Andijon shahrida tug'ilgan, otasi eshon, mulkdor bo'lgan, o'zi ham eshon, Mahkamhoji to'dasida faol ishtirok etgan, hibsga olingan vaqtda o'qituvchi bo'lgan. Unga aksilinqilobiy "Milliy ittihod" tashkilotining raisi bo'lib, uning a'zolarini yig'ilishlarini tashkil etganlikda, VKP(b) va sovet hukumatining siyosati to'g'risida aksilinqilobiy ma'lumotlar tarqatganlikda, "Musulmonobod"ni tashkil etish haqida gapirganlikda, mag'lubiyatchilik xarakterida aksilinqilobiy tashviqot olib borganlikda ayblangan. 1931-yili taniqli millatchi aksilinqilobiy arbob Muso Jurulloning xorijga chiqib ketishini tashkil etgan. Niyozov Xasanxonning mol-mulki musodara etilib, o'zi otuvga hukm qilingan.

Burhon Mashrabiy 1900-yili Andijon shahrida tug'ilgan, savdogar oilasidan, Mahkam qo'rboshi to'dasi ishtirokchisi, aksilinqilobiy millatchi tashkilot a'zosi. 1923-yili qamoqqa olingan, hibsga olingan vaqtda o'qituvchi bo'lgan. Unga aksilinqilobiy yig'inlarning faol tashkilotchisi, aksilinqilobiy, fashistcha targ'ibot olib borganlikda ayblanib otuvga hukm etilgan.

Xaydarov Abdujalil 1889-yili Andijon shahrida ruhoniy boy oilasida tug'ilgan, o'zi sobiq savdogar, 1933-yili quloqqa tortilgan, "Milliy ittihod" aksilinqilobiy tashkilot a'zosi, aksilinqilobiy faoliyati uchun 1922 va 1923-yillarida 2 marta qamoqqa olingan. Hibsga olingan vaqtda ko'rlar jamiyatida xizmat qilgan. Aksilinqilobiy yig'inlarning faol ishtirokchisi va tashkilotchisi sifatida doimiy ravishda aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, Sovet Ittifoqidagi ahvol to'g'risida tuhmatona fikrlar tarqatganlikda ayblanib otuvga hukm etilgan.

Qoramandiyev Abdumutalib 1897-yili Andijon shahrida tug'ilgan, katta boy, savdogar oilasidan, 1930-yili quloqqa tortilgan. "Milliy ittihod" millatchi aksilinqilobiy tashkilotning a'zosi, bu faoliyati uchun 5 yil qamoq jazosiga hukm etilgan, surgunda bo'lgan, o'tmishda Mahkam Qo'rboshi boshliq bosmachilar to'dasiga qo'shilgan. Hibsga olingan vaqtda davlat urug'chilik fondi do'koni mudiri bo'lgan. Unga aksilinqilobiy guruhlarning faol ishtirokchisi va tashkilotchisi ekani, Sovet hokimiyatiga qarshi kurashga chaqirganlikda, xalq dushmanlarini otilishiga rahmdillik ko'rsatgani, "Milliy ittihodchilar", trotskiychilar va buxarinchilar otilayotganida, ularga rahmdillik ko'rsatganlikda ayblangan, otuvga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda.)

AMIRNING AHVOLI TANG EDI

(Boshlanishi 1-sahifada)

Bu paytda Mahmudxo‘ja Behbudiy Samarqand musulmonlar ijroiya qo‘mitasining ikkinchi raisi lavozimida edi. Murojaat Samarqand ijroiya qo‘mitasi majlisida muhokama qilinadi hamda Buxoroga besh kishidan iborat vakil jo‘natishga qaror chiqariladi. Mazkur besh nafar vakilning yetakchisi M.Behbudiy edi.

Hozirgi til bilan aytganda, rasmiy delegatsiya 6-aprel kuni Buxoroga yetib boradi. Ertasi ertalabdan mehmonlar Arkka, biroz o‘tgach, “Rahimxoniy” mehmonxonasiga taklif qilinadi. Shundan keyin ro‘y bergan voqealar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Buxoro voqealari va daf’i tuhmat” maqolasida bamisoli kino tasmasiga muhrlangandek o‘tkir nigoh va izchillik bilan batafsil tasvirlangan.

Xullas, “to‘rtdan uch hissasi ulamo va akobiri Buxoro va tab’aa bilan to‘lgan” kenggina mehmonxonaga amir kirib keladi. Manifest o‘qib eshittiriladi va marosim tugallanadi. “Buxoro voqealari...”ni o‘qiymiz:

“Amir yana elchilar ila va biz bilan borgan ikki nafar uvrupoyi ila qo‘l uzotib ko‘rushdi. Biz ikki nafar musulmon-da muntazir edukki, qo‘l uzatsalar, toki ziyorat qilsa. Va illo, oliy huzurda hammamiz aralash turgan eduk. G‘olibo, salla va choponlarimiz zarar kelturdi. Amir hazratlari na avvalda va na oxirda, agarchi bir kalima bo‘lsun, so‘ylamasdan furan chiqib ketdi...”

“Bu Behbudiy asarining eng qiziq joylaridan biri, – deb yozadilar Ibrohim G‘afurov. – Yana yorug‘ olamni o‘zing tushunmagan va tushunishni istagan savollarga to‘ldirib tashlaging keladi. ...Amir hazratlari nega “uvrupoyilar”-ga alohida e’tibor berib, izzat-hurmat ko‘rsatdilar-u, o‘z millatdoshlariga kelganda, ulardan yuz o‘girdilar.

Nega amir hazratlari zamonasining taniqli adibi bo‘lib tanilgan, “Padarkush”i bepoyon Turkistonning barcha puchmoqlariga ovoza bo‘lgan, o‘tkir maqolalari va sayohatnomalari barcha millatparvarlarning tuzalmas jarohatlariga doruyi shifo kabi ta’sir qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiydek bir munavvar siymoni tanimagandek bo‘lib o‘tdi”.

Ustoz I.G‘afurovni mutaassir qilgan nuqta shu: nima sababdan amir Behbudiyni pisand etmadi? Unga qo‘l uzatmadi? Undan yuz o‘girdi?..

Badia muallifiga hech qanday e’tiroz yo‘q, lekin vaziyatni boshqa bir nuqtadan, boshqa bir zarrabin orqali kuzatib, tahlil qilishga urinib ko‘raylik. E’tiborni amir Olimxon shaxsi-shaxsiyatiga, o‘sha kundagi uning ahvol-ruhiyasiga qarataylik. Tarixiy vaziyatni nazardan qochirmaylik.

Amir Said Olimxondan qolgan yozma meros bo‘lmish “Buxoro xalqining hasrati tarixi” yodnomasida bayon etilganidek, amir bolalik chog‘laridan otasi Said Amir Abdulahadxon yonida yashagan, padari buzrukvorining ish tutimlarini kuzatgan, ulardan o‘rnak olgan, “...diyonat ilmi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlardan tahsil qilgan...” Shundan so‘ng “...saltanat va mamlakatni idora qilish qonunlarini egallash maqsadida” otasining amr-u farmoniga binoan 13 yoshida Peterburgga o‘qishga borgan. Padari buzrukvori istagiga ko‘ra 7 yillik o‘qishni 3 yilda tugallab ota yurtga qaytgan. 12 yil Nasaf viloyatiga, so‘ng ikki yil Karmana viloyatiga hukmronlik qilgan. 1911-yil, 30 yoshida otasining o‘rnini egallagan.

O‘zining yozishicha, uch yil mobaynida yurtni obod va ma’rifatli qilish borasida ancha sa’y-harakat ko‘rsatdi. Shu bilan bir vaqtda, xalqaro vaziyat tobora qaltis tus olayotgandi. Bir yonda Afg‘oniston, shimolda Chor Rusiyasi, Angliya bizning mintaqa tomonlarga ko‘z olaytira boshlagan, tabiiy, amirlik boshiga qora kunlar kelmasdan burun hozirlik ko‘rish payiga tushgandi. Amir hazratlari yakkay-u yagona najot “muazzam rus davlati saltanati”da deb bildi, “...do‘stlik va oshnachilik yuz berib, ikki davlat orasida do‘stlik barqaror va bardavom bo‘ldi”. Yana e’tibor beraylik: “Kelishuvlarda askarlar va harbiy qurollar Buxoro tarafidan qisqartirilib, (uni qo‘riqlash uchun) harbiy asbob-uskunalar va askarlarni rus davlati o‘z zimmasiga olgan bo‘ldi. ...mamlakatni himoya qilish borasida yana askar lozim bo‘lsa, rus davlati Buxoro davlatini qo‘llashga tayyor turadigan bo‘ldi. ...men bo‘lsam mamlakat obodonchiligi bilan shug‘ullanishga intildim”.



Hozircha saltanat amirining bu qadar harbiy-siyosiy strateg sifatidagi “puxtakorli”gini izohlamay turamiz. Har qalay, Peterburgda ayni go‘daklik pallasida (13-16 yosh oralig‘ida) “saltanat va mamlakatni idora qilish qonunlari” ilmini qanchalik o‘zlashtirgani, podishohlik taxtini 26 yil egallab o‘tirgan otasi merosxo‘rini qay tariqa tarbiyat qilgani ushbu iqrornomadan ham ko‘rinib turibdi. Biroq 17-yil avvaliga kelib amir hazratlari ishongan “muazzam saltanat”ning to‘s-to‘poloni chiqib ketdi. Nima qilmoq kerak? Kimga ishonish, kimga suyanish mumkin? Ayniqsa fevral g‘alayonlaridan keyin bolsheviklar va mensheviklar orasidagi nizo shu qadar avjiga chiqdiki, “Bolsheviklardan bo‘lgan bu jamoaning tartib-qonunlarini na ko‘rib bo‘lindi, na bilib bo‘lindi. ...Ularning so‘zlariga ishonilmaydigan darajaga kelindi”.

Shu gapning o‘ziyoq Said Olimxonning siyosiy ko‘zi ochila boshlaganini, uning vujudida amir sifatidagi botiniy evrilish nish urganini ko‘rsatadi. Ikki yil ichida u Buxoro qo‘shinini urushga tayyor darajaga keltirgani ham shundan dalolat edi. Afsuski, evrilishning tagi pishiq-puxta emasligi, puchligi bilinib qoldi, o‘zi esa arosatda qoldi – u kelishuvni yangilash maqsadida maxsus elchilarini Lenin va Trotskiy qoshiga jo‘natadi. Jo‘nata turib, “Bu jamoaning e’tiborsizligi va oqibatsizligini yaxshi bilardim”, deb yozadi. Saltanat sohibining (kim bo‘lganda ham, o‘zimizning ajdodimiz-da!) ahvolini tasavvur qilishga urinaylik: oqibatsizligi muqarrar bo‘lgan muttahamlardan oqibat umid qilmoqda, madad kutmoqda!

Bu kabi mulohazalarni tasdiqlovchi misol va tafsilotlar ko‘p, lekin, mavzuga qaytsak, shunisi muqarrarki, 17-yil 7-aprel kuni “Rahimxoniy” mehmonxonasidagi dabdaba chog‘ida Amir Said Olimxonning ruhi, ahvoli bundan besh battar rasvo edi. Dalillarni birma-bir yodga olaylik.

– Buxoroga yetib borgan samarqandlik mehmonlarni vokzalda rus konsuli Miller qarshi oladi, ularning hujjatlari bilan tanishgach, “sizlar-da Arki oliyg‘a borishingiz mumkindur”, deya ijozat beradi.

Savol tug‘iladi: nima uchun mehmonlarni rus konsuli kutib olmog‘i kerak?! Nima uchun Arki oliyga borish uchun uning ruxsati zarur bo‘lib qoldi? Arki oliyning sohibi, posboni u emasku, axir?!

– “Sizni g‘oyibona taniyman, – deydi konsul Behbudiyga, – ushbu manifestni hanuz hech kim o‘qugan yo‘q, birinchi daf’a sizg‘a ko‘rsaturman”.

G‘oyibona tanishligini pisanda qilish ortida yana qanday muddaolar yashirinligini taxmin qilish qiyin emas. Ko‘rinadiki, Miller pixini yorgan lo‘ttiboz! Yana savol: amir e’lon qilishga tayyorlangan manifest Millerning qo‘liga qayerdan tushdi? Buning ustiga u, uni hali hech kim o‘qimaganini, birinchi daf’a Behbudiyga tanishtirilayotganini ta’kidlashining zamirida nima yashirin? Behbudiyga hurmat, desak, bu qadar arzanda hujjat qayerdan Millerning qo‘liga tushib qoldi? Hatto xayol qochadi – mazkur hujjat matni-mazmunidan amir boxabar edimi yoxud?..

– Samarqanddan tashrif buyurgan delegatsiya vakillari oradan bir kun o‘tib, ertasiga, 7-aprel soat o‘nlarda ilk marta mahalliy a’yonlardan biri – Nasrullo qushbegi ila so‘ylashadilar. Ya’ni bu orada mehmonlar bilan asl mezbonlar yuzlashmadilar, ehtimol, bunga Miller ijozat bermagan chiqar?!

– “Miller janoblari manifestning aslini chiqarib, qushbegiga berdi. Quyisig‘a amirning katta davra muhri bosilg‘on edi. Qushbegi o‘qub ko‘rib, qo‘l qo‘ydi”, deb yozadi Behbudiy.

Savol: nega endi Buxoro amiri e’lon qilayotgan manifestning asl nusxasi Millerda saqlanadi? Matnni qushbegi endi ko‘ryaptimi? Avval bexabar edimi? Amirning katta davra muhri kimda saqlanadi? Amir hazratlaridami yoxud?..

– “Miller janoblari manifestning asl nusxasini ikkinchi bor Behbudiyga uzatadi (bir kun avval ham o‘qitgan edi). Hazrat tahrirdagi saktaliklarni ko‘rsatadi va barcha sir-asrorni fosh etuvchi gapni yozadi: “G‘oliban muni (manifestni – X.D.) musulmoniy bilaturgan rus yozgan edi”.

Mana, gap qayerda! Nima, Ibrohim G‘afurov ta’na ila yozganlaridek, amir saroyida qo‘r to‘kib o‘tirgan munshiylarning aqli, farosati, tajribasi yetmasmidi bunday hujjatni bitishga?!

– “Bizlar kunjda turduk, – deb davom etadi Behbudiy, – besh daqiqadan so‘ng Nasrullo qushbegi janob oliyni olib keldi”.

Behbudiy hazratning chertib-chertib so‘z tanlashiga e’tibor beraylik – “olib keldi...” Ustoz Ibrohim G‘afurov ham taajjubni yashirmaydilar. “Meni bu yerda, yana bilmadim-u sizga qanday ko‘rinadi – Behbudiyning “Nasrullo qushbegi janob oliyni olib keldi” degan favqulodda jumlasi ham hayratga soladi. Holbuki, amir janoblari qushbegi va boshqa a’yonlar o‘ramida kelishlari kerak edi. Lekin “olib keldi!” Behbudiy amirda hech qanday kuch-quvvat, shukuh qolmaganligi, uning irodasi batamom sindirilganligini shu qisqagina jumlada ifodalab beryaptimi? Shukuhsizlik shu holga yetishganmidi?”

Sanab o‘tilgan dalillarni yana davom ettirish mumkindir, lekin keltirilganlaridan ham ko‘rinib turibdiki, Amir Said Olimxonning o‘sha kundagi ahvoli, shukuhsizlik ham gapmi, tang-u tor edi! Uning serviqor salla ostidagi zalvorli boshi qora bulutlar o‘ramida, iskanjasida edi. Janobning o‘zini, jismini emas, suratini olib kirgandi Nasrullo qushbegi! Amir janoblari narsa-buyum emaski, mahbus-mahkum emaski, kimdir olib kirsa.

Kim bilsin, amirning ko‘nglidan nimalar kechayotgandi o‘sha damlar! Hamma turib, ta’zim bajo keltirayotganlari ko‘ziga ko‘rinmayotgan, “Yashasun amir hazratlari!” degan hayqiriqlar qulog‘iga kirmayotgan, uning uchun maxsus “bir ko‘rpacha va zarrin lo‘la qo‘yilg‘ani” tatimayotgan, chordona qurib o‘tirayotib Behbudiy yozganidek, “semizligidan zahmat chekar edi” emas, balki zimmasidan yanchib yuborgudek bosib turgan yukning zalvoridan abgori zabun – bamisoli ruhan pachaqlangan holatda edi. Bobosidan, otasidan meros saltanat ixtiyoridan chiqayotgan, salkam 20 yillik hokimlik va amirlik taxti boy berilayotgani kun, lahza sayin muqarrarlashib borayotgan damlarda uning ko‘ziga qo‘shni muzofotdan kelgan munavvar bir inson (Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lgan taqdirda ham!) ko‘rinarmidi. Kim bilsin, xayol-da, faraz-da, Miller va uning izmidagi yugurdaklarning shaytoniy nazar-nigohiga giriftor qilmaslik uchun ham Behbudiyga nazar tashlamay o‘tgan bo‘lsa-chi, Amir hazratlari?!

Nafaqat o‘zining, balki el-yurtning, ota makonning, kechmish-u kelmishning taqdiri qil ustida qalqib turgan bir paytda, Ibrohim ustoz to‘g‘ri ta’riflaganlaridek, “jahonshumul miqyosdagi siyosiy girdob ichiga allaqachon tushib bo‘lgan”ini anglab yetayotgan bandai ojiz (o‘n karra amir bo‘lgan taqdirda ham!) kimgadir qo‘l berdi nima-yu, bermadi – nima?!

Piravordida savol tug‘iladi: o‘sha mash’um kun Behbudiy taqdirida burilish nuqtasi bo‘ldimi, ya’ni Amir unga nisbatan tish qayradimi yoki?..

Bu savol yana va yana og‘ir o‘ylarga, mushohadalar va farazlarga undaydi, da’vat etadi, ammo-lekin bir haqiqatni baralla aytmoqlik zarur – bolshevik bo‘ladimi, menshivik bo‘ladimi, o‘sha tusdagi istilochilar uchun amirdan ko‘ra Behbudiydek zot xavfliroq, xatarliroq edi. Zero, amir yoki shoh talvasada tiz cho‘kishi, izni-jilovini allaqanday bosqinchilar qo‘liga berib qo‘yishi mumkin, lekin Behbudiy va behbudiylar aslo tiz cho‘kmaydi, zinhor jilovni kimsalar qo‘liga tutqazmaydi!

Xurshid DO‘STMUHAMMAD

MUSHOHADA

HAM QOG‘OZ, HAM VAQT TEJALDI

Gabriel Markesning “Atirgulning tikoni” hikoyasida ikki yoshning samimiy muhabbati fonida jamiyat va uning rasmiyatga qorishgan dunyosiga ko‘zgu tutiladi. Atirgul tikoni sanchilgan barmoqdan qon ketishi oqibatida kelinchak foniy dunyo bilan xayrlashadi. Ammo asardagi “dard” bir jumla bilan xulosalaganimizdek kichik emas. Billi Sanches mahbubasini kasalxonaga joylashtirganidan keyingi atigi uch kunda sodir bo‘lgan voqealar kishini hayron qoldiradi.



Ularning barchasi rasmiyatchilik, qog‘ozbozlik singari atay o‘ylab topilgan azoblar ekani fosh bo‘ladi. “Insoniyatning qo‘lidagi kishan idora qog‘ozidan yasalgan”, deganda Frans Kafka nechog‘li haq edi.

To‘rachilik, sun’iy ravishdagi byurokratga to‘siqlar millat ravnaqiga to‘siq bo‘ladi. Ortga nazar tashlaganda, bir parcha qog‘ozga muhr bostirish uchun daladan beri kelmaydigan mahalla raislarini izlab yurganlarim yodimga tushadi. Rasmiyatchilik, byurokratik to‘siqlar oqibatida qanchadan qancha bo‘lajak tadbirkorlar turli davlatlarga borib, arzon ishchi kuchiga aylangan kunlarni ko‘rdik. Ular rejalarini, orzu-umidlarini qog‘ozbozlik girdobiga dafn qilishdi. Yaqin o‘tmishda investor degani mamlakatimizga qadam bosmasdi. Chunki ularning sun’iy to‘siqlar va qog‘ozbozlikka toqati yo‘q. Ruxsat berish bilan bog‘liq ishlar boshqaruv organlari qo‘lida edi. Ish qilmoqchi bo‘lsang, hokimiyatga bor, falonchiyevga uchrash, u kishi majlisda, ertaga kelasan, degan va’j-korsonlar aytilardi.

Bu boradagi ishlar mamlakatimizda tartibga solinganiga hali ko‘p bo‘lmadi. Davlat xizmatlari tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yilgani – obro‘li tanishi bo‘lmagani uchun ishi tezda bitavermaydigan odamlarga juda ma’qul keldi. Axir, kim bo‘lmasin navbati bilan o‘ziga kerakli hujjatni vaqtida olsa bo‘lar ekan-ku!

Ba’zi muammolar yuzaga kelganda, ijtimoiy tarmoq orqali rahbarlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilaman. Darhol natija ko‘rinadi. Yaratganga shukrki, “Boshliq yo‘q, ertaga keling”, deydigan zamonlar o‘tdi. Birgina misol. Elektron gazeta ochish uchun tahririyat nizomini bir soatda tuzib, Davlat xizmatlari tashkilotiga bordim. O‘n daqiqada elektron ariza berildi. Oradan ko‘p o‘tmay, telefonimga ish bitgani haqida SMS keldi. Qisqasi, o‘n kun ichida gazetaning nishona sonini ham tayyorladik. Keyin bilsam, shu amalni qo‘l telefonim orqali ham qilsam bo‘lar ekan. Muhimi, ancha qog‘oz va vaqt tejaldi.

Hayotda muvozanat, zanjirsimon bir bog‘liqlik bor. Ko‘p voqealar boshqalari bilan bevosita yoki bilvosita uyg‘unlashib ketadi. Masalan, qog‘ozbozlikning yo‘qolishi ekologiyaga ham ijobiy ta’sir qiladi, albatta. Chunki qog‘oz tayyorlash uchun ishlatiladigan sellyuloza, asosan, yog‘ochdan olinadi. Biz idora qog‘ozlari hajmini kamaytirish orqali kislorod bilan to‘yintiradigan daraxtlarga ko‘proq hayot baxsh etishimiz mumkin.

Obid QO‘LDOSH

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 4192
Lotin yozuvidagi adadi – 11785
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
(71) 233-11-07

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:00
Sotuvda narxi erkin.